O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«Himoyaga ruxsat etildi»
Ingliz filologiyasi fakulteti dekani,
_____ p.f.n. S.Misirov
«28» may 2018 y.

5111400-Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)
ta’lim yo‘nalishi bitiruvchisi

DAVLATOVA YULDUZXON AHMADJON QIZINING

“INGLIZ TILIDA IDIOMA VA SO’Z BIRIKMALARINING PRAGMALINGVISTIK JIHATLARI”

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»
Ingliz tili o’qitish metodikasi
kafedrasi mudiri
_____ kat.o’qit. M.Qoraboyev
«23» may 2018 y.

BMI rahbari: Ingliz tili o’qitish
metodikasi kafedrasi o’qituvchisi
_____ Sh.Ne’matjonov

Namangan – 2018

INGLIZ TILIDA IDIOMA VA SO‘ZBIRLIKLARNING PRAGMALINGVISTIK JIXATLARI

MUNDARIJA

KIRISH…….2

BIRINCHI BOB. INGLIZ TILIDA TURG‘UN IBORALARNING SHAKLLANISHI

1.1. Frazeologiya va frazeologizmlar muammosi…….…….……..8

1.2. Maqol va matallar paremiologiyaning emotsional obrazli manbalari sifatida.12

1.3.Turg‘un iboralarning til lug‘at boyligi shakllanishida tutgan o‘rni…….……..23

Birinchi bob bo‘yicha xulosa…….…….32

IKKINCHI BOB. INGLIZ TILI FRAZEOLOGIZMLARINING UMUMIY XARAKTERISTIKASI

2.1. Sinonimiya va variantdoshlikning turg‘un iboralar shakllanishida tutgan o‘rni…….34

2.2. Frazeologiyada antonimiya hodisasinig o‘ziga xos xususiyatlari……42

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa…….…….45

UCHINCHI BOB. O‘ZBEK TILDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING PRAGMALINGVISTIK TADQIQI

3.1 Turg‘un birikmalar ma’nolari ko‘chishining lingvokul’turologik aspekti..…..46

3.2. Turg‘un birikmalar leksik ma’nosi o‘zgarishining pragmalingvistik asoslari..52

3.4 Ingliz tilidagi frazeologik birliklarning birliklarning o’qitish tehnologiyalari..57

Uchinchi bob bo‘yicha xulosa…….....63

UMUMIY XULOSALAR……65

SUMMARY…….……..67

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI……71

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan.

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning, ijtimoiy hayotning real talablaridan kelib chiqqan holda, yurtimizda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, unga o‘qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish, mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha ixtisoslik yo‘nalishlarini takomillashtirish borasida katta ishlar qilindi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 8-oktabrdagi farmoyishi asosida tuzilgan ishchi guruh tomonidan oliy ta’lim tizimidagi mavjud holatni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, qator oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-pedagogik salohiyat hanuz past darajada qolmoqda, ta’lim jarayonining o‘quv-metodik va axborot ta’minoti zamonaviy talablarga mos emas, moddiy-texnik baza tizimli ravishda yangilanishga muhtoj. Oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayoniga ilg‘or xalqaro tajribani keng joriy etish, yetakchi xorijiy turdosh ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish orqali pedagog va ilmiy kadrlar malakasini oshirish borasidagi ishlar talab darajasida olib borilmayapti.

Qabul qilingan qarorga ko‘ra, oliy ta’lim tizimini kelgusida kompleks rivojlantirishning eng muhim vazifalari etib belgilandi.

Dasturga muvofiq, 2017-2021-yillarda 48 ta oliy ta’lim muassasasida jami 180 ta o‘quv, ilmiy-laboratoriya binosi, sport inshootlari va ijtimoiy-muhandislik infratuzilmalari obyektlarida qurilish, rekonstruksiya va kapital ta’mirlash ishlari olib boriladi. Shuningdek, 53 ta oliy ta’lim muassasasida 400 ta o‘quv laboratoriyasi bosqichma-bosqich eng zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari

bilan jihozlanadi, 7 ta oliy ta’lim muassasasida barcha oliy ta’lim muassasalari o‘zaro hamkorlikda foydalanadigan ilmiy laboratoriyalar tashkil etiladi.

Mazkur yo’nalishlarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo’limlardan iborat. Shu bilan birga prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ajdodlarimizni oltin merosini ro’yobga chiqarish bo’yicha Presidentimiz To’raqo’rg’onda yashab ijod etgan Ishoqxon Ibratga bagishlangan muzey va maktab ochilishini aytgandi. Ma’lumot uchun, Ishoqxon Ibrat dunyoviy bilimlarni chuqur o‘rgangan ziyoli bo‘lgan, yettita tilni bilgan. “Olti tilli lug‘at”, “Xatlar majmui”, “Tarixi Farg‘ona”, “Tarixi madaniyat”, “Zamon tarozusi" kabi o‘ndan ortiq ilmiy-tarixiy hamda ma’rifiy asarlar yaratgan. 1886 yilda zamonaviy maktab ochgan. 1907 yilda esa yangi “usuli savtiya” maktabini tashkil etib, qishloq bolalarini o‘qitgan.

Ishoqxon Ibrat 1908 yil Orenburg shahridan litografik mashina sotib olib, o‘z hovlisida “Ishoqiya bosmaxonasi”ni tashkil qilgan. Bu bosmaxona o‘tgan asrning 60-yillarigacha faoliyat ko‘rsatib kelgan va u yerda o‘tgan davr mobaynida bir qator ilmiy-ma’rifiy kitob va risolalar, milliy gazetalar chop etilgan.

Til bilish bu - boylik. Til bilgan inson dunyoni biladi, hech qachon kam bo‘lmaydi. Ota-bobolarimiz shunday bo‘lgan, bu bizning qonimizda bor. Yoshlarimizda shunday intilishni uyg‘otishimiz kerak, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Xorijiy tillar bo‘yicha ilmiy ishlar qilish, til o‘rgatish metodologiyasini takomillashtirish, maktab-internatda darslarni shu asosda olib borish kerakligi qayd etildi.

Maktabda ingliz, nemis, fransuz, rus, arab, xitoy, koreys tillari filologiyasi o‘qitiladi. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi. Dars jarayoniga chet ellik ko‘ngillilar ham jalb etiladi.

O‘zbekistonning dunyodagi ko‘plab davlatlar bilan xalqaro iqtisodiy va madaniy aloqalarining rivojlanib borayotgan bu davrida chet tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaydi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, ”jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini egallashga

intilayotgan davlat uchun horijiy tillarni mukammal bilishning mohiyatini tushunish murakkab emas, zero bizning xalqimiz oʻz buyuk kelajagini xorijiy hamkorlar bilan hamjihatlikda koʻradi". Shu boisdan, pedagogika, filologiya kabi fan yoʻnalishlarida ham didaktika, lugʻatshunoslik, matn nazariyasi, tarjimashunoslikning yangi asoslarini ishlab chiqishni jadallashtirish kabi muhim vazifalar turibdi. Mana shu vazifalarni hal qilish haqida soʻz yuritar ekan, birinchi prezidentimiz I.A.Karimov, "Endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini bevosita ona tilimizdan gʻarb va sharq tillariga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur. Buning uchun xorijiy tillarni, adabiyot va badiiy tarjima san'atining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama puxta egallagan mutaxasislarni tayyorlash imkoniyati bizda mavjud" degan fikrlarni ta'kidlab oʻtadi.[1]

Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ijtimoiy rivojlanishning milliy modeli haqida soʻz ketganda, jahon madaniyati va ilm-fani taraqqiyotidan boxabar boʻlgan, bebaho milliy madaniyatimiz sarchashmalari bilan qalblari limmo-lim toʻlgan, oʻz yurtining haqiqiy vatanparvarlari boʻlgan, ziyoli hamda gʻayratli, shijoatli yoshlarni tarbiyalay bilgan mamlakatgina rivojlangan, gullab yashnagan buyuk kelajakni yarata olishi haqida ta'kidlab oʻtadi[2].

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ham xuddi shu maqsadlar yoʻlida ishlab chiqilgan. Mazkur dasturda yuksak umumiy va professional madaniyatga ega boʻlgan, ijtimoiy va ijodiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotga mustaqil moslasha oladigan va oʻz oldiga ulkan maqsadlarni qoʻya biladigan hamda ularni amalga oshira oladigan yangi avlod kadrlarini yetishtirish yoʻllari yoritib berilgan.[3]

Mazkurbitiruv malakaviy ishi ingliz tilida frazeologik birliklarning oʻziga xos xususiyatlarini semantik struktural jihatdan tadqiq etishga bagʻishlangan.

Mavzuning dolzarbligi yana shu bilan asoslanadiki, til semantikasinioʻrganish yuzasidan koʻplab ishlar amalga oshirilgan boʻlsada,uning ayrim jihatlari hozirga qadar yetarli darajada oʻrganilgan emas. Til derivatsion

[1] Каримов.И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Т., Ўзбекистон-2011, 440-бет.
[2]Каримов.И.А. "Она юртимиз бахту иқболи йўлида хизмат қилиш - энг олий саодатдир".Тошкент: Маънавият, 2015, 301 б
[3] 1997.08.29 №463-1-сон Ўзбекистон Республикаси Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида.

imkoniyatlarining lug‘atlarda aks ettirilishi va frazeologik birliklarni semantik jihatdan talqin etish ham shular jumlasiga kiradi.

Frazeologik birliklar tabiatining murakkabligi bois, hozirga qadar amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida asosan frazeologik birliklarning hosil bo‘lish yo‘llario‘rganilgani holda ularning mazmundorligi, ma’no mohiyati lingvistikjihatdan to‘la tadqiq etilmagan. Tadqiqot ishida ingliz tili frazeologizmlarining semantik-struktural xususiyatlari batafsil ko‘ribchiqiladi hamda ularninglug‘atlarda qay tarzda aks ettirilishi o‘rganiladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan masalalar mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Masalaning o‘rganilganlik darajasi. Frazeologik birliklarni tilning uzviy ajralmas bo‘lagi sifatida ko‘rib chiqish frazeologiyaning umumiy va o‘ziga xos qonuniyatlarini mukammal o‘rganib chiqishni talab etadi. Frazeologik birliklarning semantik stilistik xususiyatlarini tahlil qilish, barchaga ma’lumki, juda ham keng qamrovli sohadir. Bu masalani lug‘atlar bilan uzviy bog‘langan holda o‘rganib chiqish masalasi hozirga qadar ijobiy hal etilmagan.

Sotsiolingvistika, umumiy tilshunoslik yo‘nalishidagi ayrim tadqiqotlar ishlari ham bu masalaga bag‘ishlangan,ammo bu tadqiqotlar odatdaumumiy xarakterga ega bo‘lib, frazeologikmateriallarga kam murojaat etilgan.

Tadqiqot ishining **maqsadi** frazeologik birliklarning semantik-stilistik xususiyatlarini o‘rganish hamda ularning ma’no mohiyatini ochib berishda zamonaviy lug‘atlarning tutgan o‘rnini tahlil qilishdan iborat.

Ishning maqsadidan kelib chiqqan holda, tadqiqot oldida quyidagi **vazifalar** turibdi:

1.Ingliz tili frazeologik birliklarining semantikstilistik xususiyatlarini aniqlashtirish.

2.Frazeologiyada semantik munosabatlarni modellashtirish va ularning turli xil lug‘atlarda aks etish qonuniyatlarini tahlil qilish.

3.Frazeologizmlar mazmunlarini nominativ nuqtai nazardan tadqiq etish.

4. Ingliz tili maqollarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.

Ishning maqsad va vazifalari tadqiqot usullarini belgilab beradi. Ishda frazeologik identifikatsiya, definitsion analiz, kontekstual analiz, qiyosiy-chog‘ishtirma va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot ishining **predmeti** sifatida maqollar hamda frazeologik birliklarning semantik mexanizmi va ularning lug‘atlarda aks etishi ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqot **ob’ekti** sifatida eng avvalo ingliztilining obrazli, ekspressiv va emotsional frazeologik birliklari va maqollari olingan.

Tadqiqot **materiali** sifatida frazeologik birliklar, maqollar, matallar xizmat qildi. FBlar maqollar to‘plami, hikmatli so‘zlar to‘plami, frazeologik lug‘atlar, izohli lug‘atlar va boshqa lug‘atlardan olindi.

Tadqiqot ishi nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, bunda maqollar va frazeologik birliklarning semantik stilistik xususiyatlarini, ularning lug‘atlarda aks etish jarayonini chuqur tahlil qilish paremiologiyada sistemali aloqalarning vujudga kelishiga omil bo‘ladi. Bu ishning asosiy nazariy yutug‘i hisoblanadi. Bundan tashqari, frazeologizmlarning nominativ jihatini o‘rganish bizga onomasiologik tadqiqotlarning yangi, hali yaxshi o‘rganilmagan sohasini ya’ni nominatsiya umumiy nazariyasini o‘rganishga keng yo‘l ochib beradi hamda u haqidagi ma’lumotlarning ko‘payishiga olib keladi.

Ishning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan horijiy tillar fakultetlari bakalavr va magistrantlariga dars berish jarayonida, ingliz tili frazeologiyasi bo‘yicha nazariy kurslar tuzishda, leksikografiya va frazeografiya amaliyotida, maxsus frazeologik qo‘llanmalar tuzishda foydalanish mumkin.

Ishning maqsadi;

1. Kelib chiqishiga ko‘ra, frazeologik birliklarlar turli xil manbalarga mansubdirlar; ularning semantik va struktural rivojlanishi konnotativ ma’nodorlikka ega bo‘lgan, to‘liq shakllangan frazeobirlikning paydo bo‘lishiga xizmat qiladi.

2. Frazeologizmlarning stilistik xususiyatlari asosan ularning quyidagi uch o‘lchamdagi funktsional o‘rni bilan belgilanadi. Bular: a) vaqt, b) makon va v) jamiyat.

3. Frazeologizmlar muntazam xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘zlarining invariant belgilariga ko‘ra, bir-biri bilan ichki frazeologik munosabatlarda bo‘lishib, o‘z ichiga turli hajmlardagi birliklarni qamrab olgan frazeoguruhlarni tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishi tuzilishi; Bitiruv malakaviy ishi Kirish, uch bob, Xulosa va Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I BOB. INGLIZ TILIDA TURG‘UN IBORALARNING SHAKLLANISHI

1.1. Frazeologiya va frazeologizmlar muammosi

Har qanday tilning lug‘at boyligi faqat yangi so‘zlar yasalishigagina emas, balki balki iboralar, turg‘un so‘z birikmalari hisobiga ham son jihatidan, ham sifat jihatidan boyib boradi. Tidagi ana shunday turg‘un birikmalr bilan “dunyosi” bilan shug‘ullanuvchi fan frazeologiya fanidir. Frazeologiya iboralar haqidagi ta’limot bo‘lib, bu terminni 1928 yilda E.D.Polivanov qo‘llagan edi:”Men morfologiyaga nisbatan sintaksis qanday aloqada bo‘lsa, leksikaga nisbatan xuddi shunday munosabatga kirishuvchi maxsus fanni “frazeologiya” degan terminni qo‘llashni lozim topdim”[4].

Darhaqiqat, so‘nggi yarim asr davomida frazeologiya jahon tilshunosligining diqqat markazida bo‘ldi.bir qator monogrfik ilmiy izlanishlar natijasida uning ob’ekti aniqlandi, tadqiqot metodlari ishlab chiqildi va bu fan tilshunoslikning boshqa sohalari qatorida o‘z o‘rnini shakllantirdi. Hozirgi kunda bu termin ikki ma’noda qo‘llanilmoqda.

1. Tildagi frazeologik birikmalarning jami;

2. Turg‘un iboralarni o‘rganuvchi soha, fan.

So‘nggi yillarda ko‘plab tillar materiallari asosida olib borilgan keng ko‘lamli frazeologik tadqiqotlar natijasida frazeologizmlar quyidagicha ta’riflanmoqda.

Ikki yoki undan ortiq komponentdan tashkil topgan, yaxlit frazeologik ma’no anglatuvchi turg‘un til birligi frazeologizm yoki frazeologik birikma (ibora) deyiladi. Masalan, ingliz tilida a feast or a famine [“katta omad yoki butunlay omadsizlik”]; think on one’s feet [“tezda tushunib yetmoq”; “darhol javob qaytarmoq”], put on the grill [“kirishib ketmoq”, “qiynoqqa solmoq”]; be (all) at sixes and sevens [“tartibsiz holda bo‘lmoq, xaroba holda bo‘lmoq”]; set on six and seven, set on cinque and sice [“eng katta nomerga pul tikish ya’ni barcha narsani o‘rtaga qo‘yib tavakkal qilish”] kabi iboralari bunga misol bo‘ladi.

[4] Umarxo‘jaev M.E. Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi.- Andijon: ADTPI, 2010.-150b.

G‘arb tilshunoslari orasida Sh.Balli birinchilardan bo‘lib 1905 yilda frazeologiya terminini qo‘llagan. U frazeologizmlarni stilistik nuqtai nazardan tilning ifoda birligi sifatida talqin qilgan. XXasrda frazeologizmlarni tadqiq qilgan olimlar orasida V.V.Vinogradovning semantik klassifikatsiyasini ta’kidlab o‘tish lozim. Olim rus tili frazeologiyasini semantik klassifikatsiya qildi va mazkur klassifikatsiya ko‘plab tillar frazeologizmlarni jadal o‘rganishga turtki bo‘ldi.Ushbu o‘rinda ingliz tili frazeologiyasi tadqiqotchilar N.N.Amosova, A.V.Kunin, nemis tili frazeologiyasi tadqiqotchilaridan I.I.CHernishyova, A.D.Rayxshtayn, frantso’z tili frazeologiyasi tadqiqotchilaridan M.I.Retsker kabi olimlarning nazariy va amaliy izlanishlarini alohida tilga olish lozim.

Frazeologizm so‘z kabi lug‘aviy birlik hisoblanadi.Ular ham so‘z kabi tilda tayyor holda mavjud bo‘lganligi sababli nutq hodisasi emas, balki til hodisasidir. So‘z leksik ma’noga ega bo‘lgani kabi frazeologizm o‘am o‘zining frazeologik ma’nosiga ega. So‘zdagi barcha paradigmatik, sintagmatik xususiyatlarni frazeologizmlarda ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga frazeologizmlar so‘z va erkin so‘z birikmasidan bir qancha xususiyatlari bilan farqlanadi. Masalan, frazeologizm frazeologik sath elementi, birligi sifatida frazeologiya va frazeografiya ob’ektidir. Frazeologiyani tashkil etuvchi komponentlar ma’no butunligiga ega emas, ular faqatgina shakl va tovush tomoni bilan so‘zga o‘xshaydi. Ularni tashkil qiluvchi komponentlarning frazeologik ma’nosi turg‘un, ko‘proq emotsional ekspressiv xususiyatga ega bo‘lgan belgi, harakat kabilarni ifodalaydi. Shuning uchun ham frazeologik ma’no leksik ma’nodan bir qancha jihatlari bilan farqlanadi. Aksariyat frazeologizmlarning identifikatori mavjud emas, ya’ni mazkur frazeologizm ifodalab kelayotgan ma’nosini bir so‘z bilan almashtirib bo‘lmaydi hamda bu ma’no erkin so‘z birikmasi bilan izohlanishi mumkin xolos.

Tillardagi turg‘un iboralarning ilmiy tasnifi birinchi navbatda, frazeologizmlarga berilgan atamalarni tartibga solishdan iborat bo‘lishi kerak. Tilshunoslikda turg‘un so‘z birikmalarini ifodalash uchun turli terminlardan foydalanilmoqda. Mazkur holat ushbu turg‘un so‘z birikmalari tabiatining

murakkabligi bois yuzaga kelmoqda. Ular semantik, struktural va funktsional jihatdan murakkab sanalishadi.shunga koʻra, frazeologizmlar struktural-semantik, stilistik, semantik, kompleks, gapdpgi sintaktik funktsiyasi va boshqa printsiplar asosida klassifikatsiya qilinadi. Anʼanaviy klassifikatsiya usullaridan biri sifatida struktural-semantik tamoyil asosidagi klassifikatsiya tan olinadi. Unga koʻra turgʻun soʻz birikmalari juft soʻzlar, idiomalar, hikmatli soʻzlar (aforizmlar), maqollarga boʻlinadi.

Juft soʻzlar bir xil soʻz turkumiga tegishli boʻlgan birliklardan tashkil topgan turgʻun frazeologik maʼnoli iboralar sanaladi.back and forth [“yana va yana, izchil, mayda chuydasigacha”]; backward(s) and forward(s) [“izchil, ikir chikirigacha, orqa oldi bilan”]; dos and donʼtʼs [“qoidasiga koʻra”]; between grass and hay [”yoshlikda” maʼnosida]; open and shut [“oddiy, murakkab boʻlmagan”] kabi turgʻun birikmalarni juft soʻzlarga misol qilishimiz mumkin.

“Idioma” termini grek tilidan olingan boʻlib, haqiqiy, asl degan maʼnolarni ifodalaydi. Idiomalar turgʻun iboralar boʻlib, voqea, hodisa va predmetlarni ifodali tasvirlash maqsadida ishlatiladigan, maʼnosi ularni tashkil qiladigan komponentlar maʼnolari yigʻindisidan kelib chiqmaydigan, yangi frazeologik maʼno kasb etuvchi turgʻun birikmalardir. Baʼzi bir idiomalar maʼnosi boshqa bir soʻz bilan ham ifodalanishi mumkin, lekin idiomadagi konnotativ maʼno, stilistik oʻziga xoslik mazkur sinonim soʻz bilan toʻla qamrab olinmaydi.

Hikmatli soʻzlarning asosiy xususiyatlari ularning maʼnosi, internatsional xarakteri, maʼlum bir muallifga taalluqli biln ham belgilanadi. Hikmatli soʻzlarni oʻtmish donishmandlari, zamonamizning atoqli arboblari keltirgan aforistik mulohazalar, shiorlar, luqmalar, sitatalar tashkil etadi. Ularning mana shu xususiyatlari turgʻun iboralar safidan joy olish uchun asosiy mezon hisolanadi. Vaqt oʻtishi bilan baʼzi xossalari eskirib qolsa ham ular tilda turgʻun ibora sifatida saqlanib qoladi. Maqollar ham frazeologizmlarning bir turi boʻlib,ulardan shakl va mazmuni bilan farq qiladi. Odatda ular gap strukturasi kabi shakllanadi hamda hikmatomuz jiloli fikrni ifodalaydi. Maqollar bilan frazeologizmlarning umumiy xususiyati shundan iboratki,birinchidan ular struktural turgʻun, umumiy koʻchma

ma’noga ega, tildagi mustaqil birlik sifatida mavjud. Yuqorida tahlil qilingan birikmalarning an’anaviy to‘rt guruhi yagona bir printsip asosida, juft so‘zlar va maqollar struktura nuqtai nazaridan farqlanadi. Hikmatli so‘zlarning ham struktural, ham semantik jihatdan rang barangligi ularni biron aniq printsip asosida ko‘rib chiqishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, tillardagi bir qator tug‘un birliklar-frazeologizmlar ushbu tasnif orqali qamrab olinmagan.

Ta’kidlab o‘tganimizdek, V.V.Vinogradovning rus tili frazeologizmlari asosida yaratilgan semantik klassifikatsiyasiko‘plab tillardagi turg‘un birikmalar tasnifini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Aniqroq aytganda, olim yaratgan klassifikatsiya vositasida frazeologizmlarning boshqa tillarda ham uch guruhi mavjudligi isbotlandi[5]. Ushbu klassifikatsiyaga ko‘ra, frazeologizmlar quyidagicha tasniflangan:

1. Frazeologik chatishmalar. Ushbu guruhga to‘la ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan, semantik jihatdan qismlarga ajralmaydigan va umumiy ma’nosi birikmani tashkil etuvchi komponentlarning leksik ma’nosidan kelib chiqmaydigan til birliklari kiradi. Masalan, to kick the bucket, everything is at sixes and sevens.

2. Frazeologik birliklar. Ushbu guruhga yaxlit ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan iboralar kiradi. Ularning frazeologik chatishmalardan farqi shuki, umumiy ma’nosi tashkil etuvchi komponentlar ma’nosidan kelib chiqishi mumkin. Masalan,like a cat in a strange garret [o‘zini noqulay his etmoq, ignani ustida o‘tirmoq ma’nosida].

3. Frazeologik birikmalar. Ushbu guruhga qisman ko‘chma ma’noga ega bo‘lgan, ma’no motivatsiyasi mavjud, sintraktik nuqtai nazardan tarkibiy qismlari osongina ajratilishi mumkin bo‘lgan birikmalar kiradi. Bunday birikmalar komponentlari sinonimlar bilan almashtirilishi ham mumkin. Misol uchun,jerk (yoki snatch) smb. bald-headed [“kim bilandir qo‘pol muomalada bo‘lmoq”, “kimdandir o‘ch olmoq”]; come (yoki get) down to cases [“gapning po‘skallasini aytmoq”, “ishga ko‘chmoq”]; fix (yoki stop) smb’s clock [“kimningdir ovozini o‘chirmoq”]; be (yoki sit) on a cloud [“juda baxtli his etmoq”].

[5] Смирнитский А.И. Лексикология английского языка.– М.: ИИЛ, 1956. - 260 с.

I.I.Chernisheva turg‘un so‘z birikmalarining bir vaqtning o‘zida ham grammatik, ham semantik, ham stilistik xususiyatlarini inobatga oluvchi kompleks tamoyillarni ishlab chiqdi. Bunga ko‘ra bir tomondan frazeologizmlarning so‘zdan farqi aniqlansa, ikkinchi tomondan ularni frazeologik xususiyatga ega bo‘lmagan turg‘un so‘z birikmalaridan ajratib olish mumkin bo‘ladi.

Turg‘un so‘z birikmasi albatta kamida ikkita so‘zdan iborat bo‘lishi kerak. Bu jarayonda frazeoshakl tarkibidagi komponentlar o‘z mo‘‘tadilligini saqlagan holda, u yoki bu o‘zgarishlarga yuz tutishda mahrum bo‘lishlari mumkin. Quyida ravish so‘z turkumiga xos bo‘lgan so‘zlarning frazeologizmlar shakllanishida tutgan o‘rnini ko‘rib chiqamiz:

He realized that ...he was sailing rather close to the wind financially... (Th.Dreiser)[6].

...he’s sailing near the wind with those large contracts that he makes (J.Galsworthy)[7].

He didn’t buy a programme - they were asking a shilling each for them and a man must draw a line somewhere(J.B.Priestley).

He was drunk … rotten drunk. A follow’s got to draw the linesomewhere(A.J.Cronin).

Misollardan ko‘rinib turibdiki, frazeologik birliklar tilda tayyor holda mavjud bo‘lgan birliklardir. Ular ikki yoki undan ortiq komponentlarga ega. Natijada frazeologizmlar o‘z ma’nolari, tarkibi va strukturasiga ko‘ra bir butun turg‘un shakl sifatida qabul qilinadi. Bundan ko‘rinib turibdiki;[8]

1. Frazeologik birliklar nutq jarayonida yaratilmaydi, balki ular tilda tayyor holda bo‘ladi;

2. Tarkibiy qismlarining bir butunligi, strukturasi va semantikasining doimiyligi frazeologik birliklarga xos bo‘lgan xususiyat sanaladi;

3. Frazeologik birliklarning tarkibiy qismlari ikki yoki undan ortiq asosiy urg‘uga ega bo‘lishi mumkin;

[6] Dreiser, Theodore. Sister Carrie. –London: Faber and Faber, 1998.-596p.
[7] Galsworthy, John. The White Monkey and A Silent Wooing. – New York: Charles Scibner’s sons, 1999. - 291
[8] Yuldoshev B.O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. -Samarqand: SamDU, 2007. -108b.

4. Frazeologik birliklar so‘zlovchi tomonidan so‘z sifatida anglanishi mumkin bo‘lgan alohida bo‘laklardan tashkil topgan turg‘un birikmalardir.

1.2. Maqol va matallar paremiologiyaning emotsional obrazli manbalari sifatida

Barchaga ma’lumki, har bir til paremiologiyasini ya’ni turg‘un so‘z birikmalarini o‘rganuvchi sohasini maqol va matallarsiz tasavvur etish mushkul.Tilshunoslikda maqol va matal tushunchalariga turlicha ta’riflar berilgan. Maqol va matallar tilningemotsional obrazli manbalari hisoblanadi.YA’ni, maqollar xalqning pand - nasihati, ma’naviy, axloqiy xulosasi, xalq milliy ruhining aksidir. Maqol juda chuqur ijtimoiy mazmunga ega. Shuning uchun ba’zi maqollar butun bir asarning mazmuniyu yoritib turishi mumkin.

Maqollar qisqa shaklda keng mazmunni ochib beradilar. Bunday qisqalikka gapning ayrim bo‘laklarini ishlatmaslik natijasida erishiladi.

Masalan,

“Oldin uyla - keyin suyla”. (First thipk - then speak)”.

“Hechdanko‘ra- kechyaxshi”.“Vetter late than never”.

“Ne laughs best, who laighs last”.

“Birovning holiga kvlmagin zinho,

. sening holingga ham kvlvvchilar bor”.

“A great ship asks deep waters”.

“Katta karvonga- kattayo‘l”.[9]

Maqol va matallarning muhim tomoni ularni oddiy fikr - mulohazalardan ajrab turuvchi narsa, ularning semantikasidir, ya’ni bunda ikki ma’noning to‘qnashuvi, chatishuvini kuzatish mumkin, asl ma’no hamda ko‘chma ma’no.

Masalan, “Puch yong‘oq bilan qo‘yningni to‘ldirma”, “Ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq”.

[9] Hemingway, Ernest. A Farewell to Arms. – New York: Basil Blackwell, 1999.-264p

Maqollarning tuzilishida alliteratsiyaning ahamiyati kattadir. “Tomdan tarasha tushganday». Maqol va matallarda stilistik usullardan takror va parallelizmning ham ta’sir kuchi katta.[10] Masalan, o‘zbek tilida

“Yaxshi so‘z - jon ozig‘i, yomon so‘z - bosh qozig‘i”.

“Qor yog‘di - don yog‘di” kabi maqollar shular jumlasidandir.

Bu ingliz tilida shunday aks ettiriladi.

“A good beginning makes a good ending!”.

“Eat at pleasure, drink with measure”. “Nogains, nopains”[11].

L.Boboxonova fikriga ko‘ra, sententsiyaning maqoldan farqi, uni odatda ma’lum shaxsga tegishli bo‘ladi xolos [17;81].Bundan tashqari, sententsiya adabiy, kitobiy xususiyatga ega. Maqol singari ularda nasihatgo‘ylik, obrazlilik, ixchamlik, umumlashtiruvchilik mavjud bo‘lib matnda erkinligini saqlaydi va matndan tashqi holatda ham o‘zining bir butunligini, yaxlitligini yo‘qotmaydi.

“A clear consience makes a man very happy” .

“Sweet is revenge, especially to women”.

“A little learning is a dangerous thing”.

“A sound mind in a sound body”.

“Vetter late than never”[12].

“Dunyoda tilsiz xalq bo‘lmaganidek, maqolsiz til ham yo‘q”, - deb ko‘rsatadi tatar yozuvchisi Noqiy Esanbat.

Xalq ijodiyotining o‘ziga xos janri og‘zaki nutqda ham, yozma adabiyotda ham turli atamalar bilan nomlanadi: maqol, matal, naql, masal, hikmatli so‘zlar, aforizmlar, ota-bobolar so‘zi, donolar so‘zi va hoqazo. Bular orasida maqol atamasi keng qo‘llaniladi.

Maqol - xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi, ko‘p asrlik tajribalari majmui, turmushdagi turli voqea - hodisalarga munosabatining ifodasidir. Maqol -

[10] Yuldoshev B.O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. -Samarqand: SamDU, 2007. -108b.

[11] Hemingway, Ernest. A Farewell to Arms. – New York: Basil Blackwell, 1999.-264p

[12] Bushuy T.A. Phraseological Equivalentation as a problem of Contrastive Lexicography // Contrastive Linguistics.– Sofia, 1996. - №1.–P.30-35.

kundalik hayotda, kishilarning bir - birlari bilan muomalada boʻlishi jarayonida tugʻiladi. Xalq maqoli - xalqning mulkidir.

Maqol qaygʻusi - xalq qaygʻusi, maqol gʻazabi - xalqning gʻazabi, maqol kulgusi- xalq kulgusi va maqol kinoyasi - xalq kinoyasi demakdir. Maqol ishlatmagan bironta xalq, maqol ijod kilmagan bironta til yoʻq.

Maqollar borki, shirin pand - nasihat qiladi, aql oʻrgatadi, mard va botir boʻlishga da'vat etadi; achchik, aybingizni dangal yuzingizga aytadi, poraxoʻr, muttaham, yolgʻonchi, oʻgʻri, loʻttiboz, ikkiyuzlama, xushomadgoʻy, laganbardor, qallob odamning jazosini beradi: achchiq alam qildiradigan soʻzlar bilan piching qiladi, araz va kinoya aralash boplab adabini beradi.

Maqol xalq orasida kun sayin tugʻilib turganidek, ota - bobolar soʻzi sifatida avlodlardan - avlodlarga meros boʻlib oʻtadi. Bu merosni xalq juda ehtiyot bilan koʻz qorachiday saqlaydi.

Har bir maqol ham ma'no, ham shakl, ham stilistik funktsiyasi jihatidan oʻziga xos xususiyatga ega. Lekin shunga qaramay, hamma maqollarda xalq hikmati yotadi.

Maqol turmushda sinalagan, ma'lum ezgu, tugal, umumiy ma'no anglatuvchi, ixcham bir shakldagi xalq hikmatidir.

Maqol- soʻzning koʻrki, nutqning oʻtkir quroli, xalqning donishmandligidir.

Maqollar biz uchun asrning sadosi, uzoq oʻtmish bilan hamnafaslik hissini uygʻotuvchi mangu chaqiriq zamonlararo koʻprikdir. Maqollar noma'lum shoirlarning yurak satrlari, xalq iste'dodlarining masofa bilmas shu'lalari, zulm, adovat, xaqsizlik koʻkragiga sanchiluvchi adovat tigʻidir.

Maqollar - hech bir podsho e'lon qilmagan farmon, hech bir prezident muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan konstitutsiyadir.

Maqollar kamida bitta gapga teng keladi, hukm xarakterida boʻlib, tugal fikr ifodalaydi, oʻzi grammatik koʻrilishi jihatidan ham doim gapga teng boʻladi. Ulardan anglashiladigan mazmun faqatgina tasviriy yoʻl bilan ochiladi.

Masalan:

“Daraxt bir joyda ko‘karadi-hayotingni o‘tkazib turgan yeringning shart-sharoitiga ko‘nik. Agar bu shart-sharoitlarni yoqtirmay, icciq o‘rningni tashlab, yaxshiroq yerni qidirib ketsang, baribir qadp-qimmat topa olmaysan. O‘z yeringga qanoat qilsang, bora-bora kamolga yetasan, shundaylikcha qolib ketmaysan, biring ikki, yomoning yaxshi bo‘ladi”[13].

“Matal - tilda lug‘at bilan yonma-yon turuvchi so‘z oborotlari, bo‘linmas so‘z birikmasidir.Maqol so‘zining lug‘aviy ma’nosi - o‘ta donolik, aql-zakovat bilan oqilona aytilgan, mixlab -qo‘yiladigan, o‘zgartirib bo‘lmaydigan chuqur ma’noli gap, demakdir. Matal - voqea-hodisa, predmet haqida obrazli ifoda bo‘lib, fikr va muhokamaning tugal natijasini emas, balki ularning elementlarini ko‘ramiz. Bu elementlar obrazli ifodalar bo‘lib, ular ko‘chma ma’noda ishlatiladi. Matal bitta jumladan iborat bo‘lib, maqoldagi singari qofiyasi yo‘q”[14].

O‘zbek tilida matallarni maqollardan shakl va mazmun jihatdan farqlarini ko‘rsatib, ta’riflab bergan T. Salomov shunday deydi,- “Matal narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi ibora va nutq oborotlaridir”[48,39].

Matal so‘zlovchining o‘z nutqi mazmuniga munosabatini ifodalaydi. Matal kishining xotirasida osonlik bilan saqlanib qoladi. Shuni ham aytish kerakki, maqol va matallarda qandaydir bir umumiylik bor.

Bu umumiylik shundan iboratki, ularning hap ikkalasi ham nutq ta’sirchanligini oshirish, fikrni tayyor nutq formulalari bilan ifodalashvamazmundor qilish niyatida ishlatiladi. Shuning uchun maqol va matallarni bir biridan farqlash ancha kiyin.

Lekin tugal fikrni bevosita ifodalovchi maqollardan matallarni farqlamoq kerak. Matal aytilmoqchi bo‘lgan fikrni biror vosita orqali ko‘chma ma’noli sodda jumla bo‘lib, unda xulosa bo‘lmaydi, balki uning o‘zi biron xulosa chiqarish uchun xizmat qiladi. Matal fikrni tugal bayon qilmay, balki unga ishora qiladi [37;93].

[13] Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007.– 274b.
[14] Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. (Adabiy normaning shakllanish va yashash qonuniyatlari). III qism. Toshkent, 1999. – 140b.

Matal **“axmoq odam”**deyish o‘rniga **“Uning bir qaynovi kam”**deydi: **“ular bir-biriga juda o‘xshaydi”**deyish o‘rniga **“ular bir olmaning ikkipallasidir”**deb aytadi.

Matal ko‘chma ma’noda qo‘llanuvchi xalq majoziy iboralari. Voqea-hodisalar, holat va harakatlarni obrazli ifodalashda matallar keng qo‘llaniladi.

Matalda pedmet tasviri, uning xarakteristikasi beriladi. Maqolda esa to‘la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi.

“Maqollar ham to‘g‘pi, ham ko‘chma ma’nolarda qo‘llana olish imkoniyatiga egadir. Matallar... lokal qo‘llanish chegarasiga ega bo‘lib, ular hech qachon millatlararo iste’mol doirasida uchramaydi”.[15]

Matal nutqda axborot berish vositasi bo‘lsa, maqol shu axborotni jonli timsollarda yetkazish, uni dalillash, isbotlash vositasi sifatida qo‘llaniladi. Masalan, matal:

Xavf-xatardan qo‘rqqan maqsadga yeta olmas.

Shu ma’noning maqollarda ifodalanishi:

Ch***umchuqdan qo‘rqqan tariq ekmas.***

O‘g‘ridan qo‘rqqan mol yig‘mas.

Uchqundan qo‘rqqan temirchi bo‘lmas.

Kuchukdan qo‘rqqan gado bo‘lmas.

Har qanday sharoitda ham matallarning mazmuni o‘zgarmay aslicha qolaveradi

Mehnatning aybi yo‘q.

Maqollar timsollar vositasida ish ko‘pap ekan, jamiyat hayoti, xalq turmushi bilan bog‘liq holda ularning timsollari tizmasi - shakli o‘zgarib turadi:

Bir qinga ikki qilich sig‘maydi.

Ikkita qo‘chqorning boshi bitta qozonda qaynamaydi.

Demak, maqollar jamiyat hayoti bilan chambarchas bog‘liq ekan, ularda xalq kechinmalari bor bo‘y-basti bilan namoyon bo‘ladi.

[15] Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. (Adabiy normaning shakllanish va yashash qonuniyatlari). III qism. Toshkent, 1999. – 140b.

Maqol va matalning bir - biroviga yaqnligini rad qilib boʻlmaydi.

Ular struktura va semantika jihatdananiq chegaralanmagan. Shunga qaramasdan, maqol va matallarga xos baʼzi bir xususiyatlarni koʻrsatish mumkin. Maqollarning struktura va semantik nuqtai nazaridan yaqqol koʻzga tashlanib turganligi sababli ularni boshqa frazeologik birikmalardan farqlash qiyin emas.

Men quyida ish tajribasidan kelib chiqqan holda, maqol va matallarga xos belgilarni ayrimlarini eslatib oʻtmoqchiman.

Maqollarga xos belgilar:

1. Maqollar tugal fikrni bevosita ifodalaydi.
2. Soʻzlar bir-biriga qofiyalanib keladi.
3. Qarama-qarshi maʼnoli soʻzlar ishlatiladi.
4. Maqollar majoziy maʼnoda ishlatiladi.
5. Maqollarning strukturasi koʻpincha qoʻshma gap strukturasiga oʻxshaydi.
6. Maqollar kontekstda mustaqil gap yoki qoʻshma gapning bir qismi sifatida keladi.

Matallarning strukturasi bir tomondan sodda gap strukturasiga teng boʻlsa, ikkinchidan ularning strukturasi soʻz birikmasi strukturasiga oʻxshaydi, shuning uchun ham matallarni boshqa turdagi frazeologizmlardan ajratish qiyin.

Matallarga xos belgilar[16]:

1. Matal koʻchma maʼnoli sodda jumla va undan xulosa boʻlmaydi.
2. Matal fikrni biror vosita orqali ifodalaydi.
3. A.V.Kuninning fikricha, matal maqol bilanbogʻliqboʻlishiga yoki boʻlmasligiga qaramasdan, faqat kommunikativ frazeologik birikmaga nisbatan ishlatiladi.
4. Koʻpmatallar tarkibidagi olmoshlarni oʻzgartirishi mumkin, maqollarga esa bunday oʻzgarishlar xos emasdir.

Bugungi kunda maqol va matallardan foydalanmagan biror kishini uchratish qiyin. Oʻzaro munosabatda maqollardan oʻrinli foydalanish amaliyahamiyat kasb

[16] Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007.– 274b.

etadi: fikr choʻzilmaydi, voqea va hodisalar atroflicha tasvirlashga muhtoj boʻlmaydi, fikrda qiyoslash, obrazlilik ustun boʻladi.

Soʻz koʻrki boʻlgan maqol va matallardan foydalanish har bir qalam ahlining soʻz boyligini orttiradi, uning nutqini oʻtkir va taʼsirli qiladi, unga badiiy jihatdan sayqal beradi.

Maqollar publitsistikada, ilmiy-ommabop matnlarda va ayniqsa, badiiy asarlarda keng qoʻllanadi. Ular personajlar nutqiy tavsifida, nutqning uslubiy taʼsirchanligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Maqol va matallarining "Uslubiy vazifalari xilma-xil va rang-barangdir, ularning ayrimlari "tabiiy", maqollarning ichki tabiatidan kelib chiqadi. Qolganlari esa individual harakterga ega boʻlib, u yoki bu soʻz sanʼatkorining estetik maqsadi, hohish irodasi, til vositalaridan foydalanishdagi mahorati bilan aloqadordir. Shulardan birinchisini maqol va matallarning **lisoniy (uzual)** uslubiy vazifalari deb, ikkinchisini esa **nutqiy (okkazional)** uslubiy vazifalari deb nomlash mumkin"[17].

Matalda oʻxshatish, taqqoslash, kinoya, qochiriq soʻz kabi badiiy vositalardan foydalaniladi.

Maqol tarkibidagi soʻzlarning bir-biriga qofiyalanib kelishi bu alliteratsiya, yaʼni soʻzlar tarkibidagi undoshlarning uygʻoʻnlashib, takror kelishi, qapama-qarshi maʼnoli soʻzlarning birikishi ham maqollarning shakl xususiyatlariga xos belgilardandir. Masalan,

Oy tunda kerak, Aql kunda kerak.

Maqolda antiteza hodisasi koʻp uchraydi. Masalan,

Kattaga hurmatda boʻl, kichikka izzatda boʻl.

Yaxshidan ot qoladi, yomondan dod qoladi.

Quyida A.V.Kuninning ingliz tilida ajratgan toʻrtta asosiy sturuktur - semantik turdagi matallaridan faqat uch turdagi matallarning oʻzbek tiliga uslubiy jihatdan tarjimasi masalalarini koʻrib chiqamiz.

[17] Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. (Adabiy normaning tiplari). II qism. –Toshkent: Navroʻz, 1998. – 133b.

1. Komponentlari bir-biriga doimiy tobe matallar boʻlib, bunday matallardagi komponentlarni oʻzgartirib boʻlmaydi va boshqa soʻzlar qoʻshish yoʻli bilan ularning maʼnosini kengaytirish mumkin emas. Masalan:

“That's a horse of another colour”, be laughed. (J. London).

“0f, see that's a horseo quite another colour, and alters the case entirely”. (T. Lyeh, Sland, Phrase and diom on Cohoqual English and their use).

Bu misollardagi that is a horse of another colour (muqobil varianti that is another pair of shoes) matali oʻzbekcha - bu butunlay boshqa gap deb tarjima qilinadi.

“You age noblest que I never met”. “Its (be other way around. The shoe ison (be other foot”. (S. Vehow).“Vut (be story was grand just (be same, perfect grand. Where age you going - Misollarda - (be shoe is on (be other foot matali oʻzbekchaga – Vaziyat oʻzgardi – kabi tarjima qilinadi.

“The answer is a lemon”- bu nayranging ketmaydi, kabi matallar ingliz va oʻzbek tillarida oʻz holicha gap yoki qoʻshma gaplarning tarkibida kelishi mumkin. Hamma yuqorida keltirilgan misollar soda gaplardir.

Matallarning koʻp qismi soda gap boʻlishiga qaramasdan, ulardan baʼzilari ergash gap ham boʻlib keladi.

Masalan, “Never mind”, returned (be Captain, (bous be was evidently dismayed be (be figures; “ans fish that comes (o your net, I suppose?”. “Certainly”, said Mr.Vrogly, “But spratsan't whales, You know”.[18]

Bu gapdagi “An is fish that comes (o his net” Oʻzbekchaga u hech narsadan “qaytmaydi”, u har bir narsadan foyda chiqaradi”, tarzida tarjima qilinadi.

2. Koʻp matallar oʻz variantlariga ega. Matallarning koʻplikqismini tashkil qiladigan leksik variantlaridan tashqari leksik morfologik va hapxil strukturaga ega boʻlgan matallar ham mavjud.

And no one is the wiser (nobody being (be wiser, nobody the wiser) - iziyoʻqoldi: qoryogʻdi, izlarbosishdi. Tuya koʻrdingmi? - yoʻq

[18] Dickens, Charles. The Adventures of Oliver Twist.- London: Pan, 1991.-551p.

What good wind brings you here? (What wind blows you here?) - Sizniqaysishamoloʻchiribkeltirdi.

Ingliz tilida yuqoridagi struktur-semantik turdagi matallar, yaʼniochiq strukturali oborotlar ham uchraydi.

3. Koʻp matallarda olmoshlarni somebody, something, one'soʻzgartirish mumkin. Matallarning koʻp qismida one'solmoshi oʻzgartiriladi. Maqollarga esa bunday oʻzgarishlar xos emas.

Anone'sgeese are swans– U hamma narsani boʻrttirib yuboradi.

“Yes said Soames; “I daresay; you think an your geese are swans-never painter who didn't”.[19]

Baʼzi bir matallarda one's olmoshi birinchi component boʻlib keladi.

One's cards are on the (able- oʻzsiriniochib, bildirib qoʻymoq, niyatini fosh qilib qoʻymoq.

One's sur is full- Uningtoqatitoqboʻldi.

One's days are numbered- Uning besh kuni bormi, yoʻqmi.

One's hair stands on end- Sochlarim tik turibketdi; jon-ponim qolmadi; esim chiqib ketdi.

One's number is ur- Omadi ketdi; davrioʻtgan; shartipartiqolgan.

Yuqoridagi struktur-semantik turdagi matallarning qoʻllanilishiga bir qancha misollar keltiramiz.

Protens: No, King Magnus, our cards are on the table. What have you say?.

You may not know it, Wassermann, but yoir days are numbered. (T.Dodd).

The parson's hair fairly stood on end when be heard the evil tune raging through the church.

Matalga fairly ravishining qoʻshilishi frazeologik birikmaning ekspressivligini kuchaytiradi.

“Leave that place out- or your number's ur”.

“We know, our number's are ur, so let's get them quickly”.[20]

[19] Galsworthy, John. The White Monkey and A Silent Wooing. – New York: Charles Scibner’s sons, 1999. - 291p
[20] Brontyo, Charlotte. Jane Eyre. – New York: Charles Scribner’s sons, 2004.-570p

Xalq maqollari shu xalqning butun tarixini, hayot yo‘lini aks ettiradi, shuning uchun ham yozuvchilar maqollarga tez-tez murojaat etadilar. Xalq maqollari badiiy asar tilining shirali va ta’sirchan bo‘lishida muqobil uslubiy vositadir. Obrazli qilib aytganda, uzukka ko‘zqanday bezak bo‘lsa, maqol ham notiqning nutqiga, yozuvchining tasviriga ana shunday kuch hayotiylik bag‘ishlaydi- ayrim asarlarda epirgraf qolib keltirilgan maqollar shu asar g‘oyasini, maqsadini yaqqol ifodalab turish uchun xizmat qiladi:

“To be or not to be”. “Better ate than never”.

“All for one, one for all”.

“Otningo‘limi- itningbayrami”. “Osmonyiroq-erqattiq”.

Maqollardan nutq yoki asar kimga mo‘ljallanganligiga, fikrni yorqin qilishi, ta’sir doirasiga e’tiborbergan holda o‘rinli foydalanish lozim.

Maqol va matallar yozuvchilar, jurnalistlar hayotida bitmas-tuganmas boylikdir. Ular o‘zining ixcham shakli va chuqur mazmunga ega bo‘lishi bilan yozma hamda og‘zaki uslubning boshqa formalaridan ajralib turadi.

Gul-go‘zallik,-yoshlik, navqironlik timsoli. Eng ulug‘ va hurmatli mehmonga, yorga, do‘stga gul taqdim qilinadi. Tikan esa gulning tamom teskarisi sifatlariga ega. Shuning uchun go‘zallik va xunuklik, nafosat va dag‘allik, gul va tikan misolida tarannum etadi.[21]

There is no rose without a thorn.

Tikansizgulbo‘lmas.

Bunday olib qaraganda, bir-biriga butunlay qarama-qarshi ma’noni ifodalaydigan ikki narsa gul va tikan o‘rtasida ham birlikbor, ularni birbiridan ajratib bo‘lmaydi. Bir-biriga ma’nosi zid bo‘lgan ikki ob’ektning contrast qo‘zg‘alishi maqollarning shakli va mantiqi uchun zaruriy vositalardan biri bo‘lganligidan bu maqollar va matallar turli tillarda uchraydi.

Vijdonlilik, ilm o‘rganish, do‘stlik g‘oyalari maqol, matallarda asosiy o‘rinlardan birini egallaydi.

“A good coinscience is a soft pillow”. “Sof vijdon yumshoq yostiqdir”.

[21] Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007.– 274b.

“It is never late to learn”. O‘rganishning erta-kechi yo‘q. Ilm olishga intilish, muhabbat ulug‘lanadi:

“Love is neither bought nor sold”.

“Muhabbatni sotib ham, sotib olib ham bo‘lmaydi”.

Maqollarda vaqtni bekor tejamlilikka, qadrlashga, sog‘liqni o‘tkazmaslikka da’vat etiladi:

“Lost time is never fond again”. “Yo‘qotilgan vaqni hech topishmaydi”.

“Good health is above wealth”.

“YAxshi sog‘liq boylikdan afzal”.

Yolg‘onchilik, mahmadonalik, o‘g‘rilik, ochko‘zlik, manmanlik kabi yaramas holler ayovsiz fosh etiladi:

A fattler is worse thana thief.

G‘iybatchi o‘g‘ridanxavflidir.

A lay is not believed even when he speaks the truth.

Yolg‘onchi rost gapirganda uning gapiga hech kim ishonmaydi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarga yakun yasagan holda quyidagilarni aytishimiz mumkin; maqol va matallardan foydalanishda ularning tushunarli bo‘lishi, o‘z o‘rnida to‘g‘ri ishlatilishiga, nutqni aniq va ta’sirchan qilishiga alohida e’tibor bermoq zarur.

1.3. Turg‘un iboralarning til lug‘at boyligi shakllanishida tutgan o‘rni

Har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlaridan, ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o‘z rivojlanish qonuniyatlari mavjud bo‘ladi. Ingliz tilida turg‘un iboralar shakllanishining ham o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Ma’lumki, frazeologizmning shakllanishi deganda, u yoki bu so‘z birikmasining frazeologik turg‘unlikka xos bo‘lgan barcha elementlarni qo‘lg kiritishi nazarda tutiladi.

Ingliztilida yangi frazeologizmlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi omillarga quyidagilar kiradi: nom talab qiluvchi yangi tushunchalarning

paydobo‘lishi; o‘z ta’sir kuchini yo‘qotgan iboralarni yangisi bilan almashtirish ehtiyoji; ayni tarixiy davrga oid iboralarga bo‘lgan doimiy ehtiyoj.

So‘nggi yillarda frazeolog olimlarni FBlarning hosil bo‘lish yo‘llari masalasi tobora ko‘proqqiziqtirmoqda. Bu til birliklarining

mazmuni, shu jumladan, FBlarning struktur-semantik xususiyatlari ham lingvistikada kam o‘rganilgan sohalardan biri bo‘lib qolayotganligi bilan bog‘liqdir. FBning semantik-frazeologik variantlari o‘rtasidagi munosabatlarni oydinlashtirish uchun frazeoderivatsiya asosiy usullarini umumlashtirish shu boisdan ham muhim hisoblanadi.

FBlar mazmuni haqida gap ketganda, shuni aytib o‘tish kerakki, frazeologizmlar shunchaki predmetlar, harakat, holat va hokazolarni atamaydi, balki ularni tasvirlaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, FB mazmunining mavhumlik darajasi yuqori bo‘ladi. FBning o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning semantik strukturasida ifodalilik elementi kuchli bo‘ladi. Frazeologizmlar semantikasining o‘ziga xos xususiyatlarini leksik semantika bilan taqqoslaganimizda, frazeologizmlarning kontekstual xususiyati nafaqat mustaqil ma’noga ega ekanligida, balki ularning semantik mazmuni jonli va ta’sirchan ekanligi bilan ham farqlanadi. FBlarning bu xususiyati, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ingliz tilida FB hosil bo‘lishining yetti xil asosiy usullari mavjud. Bular:

1) o‘zgaruvchan so‘z birliklari ma’nosining o‘zlashtirilishi;

2)turg‘un birikmalar ma’nosining o‘zlashtirilishi;

3) potentsial frazeologizmlar negizida;

4) individual-muallif iboralari;

5) syujet asosida;

6) omonimlar so‘z o‘yini natijasida;

7)FBlardan (frazeoderivatsiya) yangi FBlarning hosil bo‘lishi.

Yuqorida ko‘rsatilgan olti usul birlamchi frazeologik shakllanishga mansub bo‘lsa, frazeoderivatsiya ikkilamchi frazeologik shakllanishga kiradi. Bunda yangi FB tilda mavjud bo‘lgan frazeologizmlarning semantik, grammatik va funktsional jihatdan o‘zgarishlarga yuz tutishi asosida vujudga keladi. Yuqorida qayd etilgan

yo‘llar bilan hosil bo‘lgan FBlarni ko‘rib chiqamiz: with both feet [”qat’iyat bilan”], a little (small) frog in a bigpond [“kichkina odam”], go great guns [“gullab yashnamoq”, ”muvvaffaqiyat qozonmoq”], a white-collar job [“idorada ishlamoq”, ya’ni “toza ish”].

FBlarning hosil bo‘lishi asos va hosila FBlar degan tushunchalarni va ularning o‘zaro aloqasini qamrab oladi. Bu masalaning murakkabligi va ko‘p qirraligi bois, asos FBlar strukturasini alohida, hosila FBlar strukturasini alohida o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi”.[1] Frazeologik derivatsiyaning nazariy asoslarini izohlashda genetik aspekt muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, bunda tarixiy asoslarning jalb etilishi odatiy hol hisoblanadi. Oddiy qilib aytganda, “A beradi Bni” formulasining o‘zi ham tilda qandaydir A ning mavjudligini yoki mavjud bo‘lganligini ko‘rsatib, B ning unga nisbatan ikkilamchi sanalishini, yoki aksincha, B ga nisbatan A ning birlamchi ekanligini isbotlaydi. Birlamchi yoki ikkilamchilikni qayd etish jarayonning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Biroq frazeologik derivatsiya tahlili faqatgina diaxron aspekt bilan cheklanib qolmaydi. Frazeologizmlarning shakllanishi hodisasi o‘z tabiatiga ko‘ra, bu masalani ikki planda o‘rganishni talab qiladi:

1.etimologik xususiyatlarni hisobga olgan holda, diaxronik planda (o‘rganilaetgan hodisaning tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilgan holda);

2.sinxron planda (til va uning qo‘llanishi lingvistikaning predmeti sanaladi**)**[22]

Shu boisdan, frazeologik derivatsiyani o‘rganishda til hodisalariga nisbatan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va bir birini taqozo etuvchi mazkur ikki yondoshuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologik shakllanish, u qay tarzda kechishidan qat’iy nazar, tilni yorqin, jo‘shqin, ma’nodor FBlar bilan boyitadi. Ayrim neologizmlarning jamiyat tomonidan qabul qilinishi, ayrimlarining esa aksincha, inkor qilinishi bir qancha faktorlarga bog‘liq bo‘lgan hodisadir. Eng avvalo, bu hosilaning oldiga qo‘yilgan

[22] Yuldoshev B.O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti. -Samarqand: SamDU, 2007. -108b.

nominativ funktsiyaga mos kelish yoki kelmasligiga bog‘liqdir.Frazeologik derivatsiya natijasida hosil bo‘lgan yangi FBning shakllanish jarayonida ko‘zga tashlanadigan o‘zgarishlardan biri, bu uning tarkibidagi denotatning semantik funktsiyasi boshqa bir denotatga o‘tishidir. Bu jarayonni Collins-2006[23]; The Concise Oxford Dictionary of Current English-2008; H. W. Fowler-2008; A. S. Hornby[24] va yana bir qator yetakchi izohli lug‘atlarda yaqqol kuzatishimiz mumkin.

BundaasosbirlikhosilaFBbilanformalvasemantikinvariantlikaloqasinisaqlabqoladi: kiss of death – kiss of life, all the fat is in the fire (arx.) – the fat is in the fire.

Frazeologiyaning derivatsion rivojlanishi zamirida frazeologik birliklarning (FB) xosil bulishiga olib keluvchi murakkab semantic jarayonlar yotadi. Bunda derivatsion jarayonlarning muntazamligi odatda quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi – FB derivatsion baza sifatida frazeologik so’zlardan, boshqa frazeologik birliklarning xam yuzaga kelishiga asos bulib xizmat qiladi. Bu quyidagi kurinishda amalga oshiriladi: ’’FB-so’z’’ va’’FB-FB’’.Hosil bo‘lgan derivatlar (xosilalar) uz navbatida keying derivatsion munosabatlarning rivojlanishida ishtirok etishlari mumkin va buning xam natijasida yangi so’zlar yoki FBlar yuzaga keladi. Dastlabki FBlarning turli xil transformatsiyalari natijasida xam FB derivatsiyasi amalga oshirilishi mumkin.

FBlarning xosil bulishiga olib keluvchi murakkab semantic jarayonlarda quyidagi bosqichlarni ko’rsatib utish mumkin:

1) FB tarkibidagi suzlarning dastlabki ma’nolarini yo’qotishi yoki kuchsizlanishi;

2) FB barcha tarkibiy qismlarining ma’nolarini uzida mujassam etganyangi (frazeologik) ma’noning mustaxkamlanishi (turg‘unlashuvi);

3) turg‘un so’z birikmasining frazeologik ma’nosi uning aloxida tarkibiy qismlariga o’zgacha kuch bilan ta’sir o’tkazadi.

[23] Collins Dictionary of the English Language.Ed. by L.Urdang, P. Hanks, Th. H. Long. – London; Glasgow: Collins, 2006. –XXXV, 1690p.

[24] Hornby A.S. The Advanced Learners Dictionary of Current English. – London: Longman, 1999. – 678p.

Tilning leksik sistemasi uchun bu umuman yangi ma’no xisoblanadi. FBlar turli xil uzgarishlarga moyil bo‘lib, bu kabi o‘zgarishlar FB strukturasidagi tarkibiy kismlarning amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan o‘zaro almashinuvi hisobiga yuzaga keladi, ammo uning qolgan kismlari o‘zlarining doimiy xususiyatlarini saklab koladilar. Bunda FB tarkibiy kismlarining transformatsiyasi kup xolatlarda unga mos keluvchi turg‘un birikmalarning moxiyatiga ta’sir utkazmaydi. Masalan,

Be all at sixes and sevens =’’tartibsiz xolda bo‘lmoq; tashlandik, qarovsiz xolda bo‘lmoq’’;

set on six and seven; set on cinque and sice =” soqqa tashlab, kata nomerga pul tikish ya’ni tavakkal qilmoq’’ .

Zamonaviy ingliz tilida kiskartirilgan iboralarko‘pqo‘llaniladi, masalan :

“We had an awful rush today”, Daphne explained wearily. ’’Fifty men for lunch and more men for dinner, and everything in the kitchen at sixes and sevens’’ (K.S. Prichard.Winged Seeds.ch. XXIV).

Frazeologik birliklar moxiyatining semantic derivatsion murakkablashuviga ular tarkibidagi bir so‘z turkumiga oid so‘zlarning takrorlanib kelishi sabab bo‘ladi. Quyida son so‘z turkumi ishtirok etgan bir qancha misollarni ko‘rib chiqamiz:

Three in One, One in Three – muqaddas iloxiy uchlik;

threesheets in the wind– g‘irt mast;

to strike twelve the first time (all at once) – tezda o‘z qobiliyatlarini namoyon qilmoq;

ten to one – o‘nta bittaga qarshi, deyarli muqarrar;

anger gave him the strength of ten – kuchini o‘n karra oshirdi;

the upper ten(thousand) – aristokratiya, hukmron tabaqa;

the ten Commandments – o‘nta muqaddas burch; vax.k.

Bu yo’l bilan butun bir FBlar uyasi hosil bo‘ladi:

two in two

a) ikkiga: to cut in two:o‘rtasidan bo‘lmoq;

b) alohida;

to put two and two together

a)vaziyatga baho bermok,

b) gap nimadaligini faxmlamok, ishning moxiyatini tushunmoq.

Endibu misollarnikontekstdakoʻribchiqamiz:

It is a game at which two can play, two can play at that game–koʻramiz kimning qoʻli baland kelar ekan (kim gʻolib likni qoʻlga kiritar ekan);

Two in distress makes sorrow – birovning gʻamiga sherik boʻlmoq, gʻamni kamaytiradi[25].

“one” soʻzi tayanch soʻz sifatida ishtirok etgan Fblarning xosil boʻlishi hozirgi davr da jadal surʼatlar bilan kechmoqda:

be all one to smb.; be at one (with smb); be one too many; be one too for smb.; suchy one, a; Evil one, The; hot one, a; one and all; one and only the; one by one; one in a thousand; one is not built that way; one or two; one too many (yokitoo much) for smb.;vaboshqalar.

Yuqorida taʼkidlab oʻtilgan semantic murakkabliklar tilning frazeologik sistemasida derivatsion xilma-xillikning vujudga kelishiga sabab boʼladi. Frazeologik tadqiqotlar uchun material toʻplashda, hamda derivatlarni frazeologik variantlardan farqlash maqsadida asosan uchta nazariy asosga amal qilmogimiz kerak.

1. mustaqil FBni derivate (xosila)dan farqlash uchun asos birlikda semantic oʻzgartirishlarning mavjudligi;

2. mavjud frazeologizmni xosila-frazeologizm deb tan olinishi uchun uning ifodalanishidagi, mazmunidagi oʻzgarishlarning mavjud boʻlishi hamda u mantiqiy nuqtai-nazardan asos frazeologizmga mazmunan yaqi nturishi lozim;

3. FB mazmuniga kuchli taʼsir oʻtkazmaydigan va shu boisdan yangi frazeoderivatlarning hosil boʻlishiga olib kelmaydigan transformatsiyaning mavjudligi.

[25] A supplement to the Oxford English Dictionary / Ed. by R.W. Burchfield. – Vol.4. – Oxford: Clarendon Press, 1996. – 1410p

Tilda FB tarkibiy qismlarining turli xil semantic transformatsiyalari bilan kechadigan derivatsiya jarayoni boshlang'ich material mazmun moxiyatining boyishiga olib keladi. Bu kabi xodisalarga aloxida izchillik bilan o'rganilishi kerak bo'lgan uziga xos derivatsion xodisalar sifatida qarashimiz mumkin**.** Masalan, son so'z turkumiga kiruvchitar kibiy qismlarning o'z sanoq xususiyatidan uzoqlashuvi odatda FBning umumiy mazmuniga bir qator yangi ma'nolarning kirib kelishi bilan kechadi:

It is sixof one and half a dozen of the other = ''Bu xuddi o'sha ning o'zi'';

Everything is at sixes and sevens='' xamma narsaning oyog'I osmondan bo'di''. Bu kabi xolatlarda FB tarkibiga kiruvchi sonlar semantik va funktsional murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Bu esa FB derivatsiyasining belgisi xisoblanadi. Misol uchun, it is a game at which two can play at that game = "ko'ramiz kimning qo'li baland kelarkan" FBsini olib qaraydigan bo'lsak, bunda FB tarkibiday uzaga kelgan ma'lum miqdor analogiya qonunlari asosida suzlashuv amaliyoti jarayonidayuzagakeladi. Bu fikrni isbotlash uchun zamonaviy ingliz tilida mavjud bo'lgan quyidagi FBlarni misol sifatida keltirib o'tamiz:

The seven virtues = yeti ezgu ish, yettita ezgu fazilat;

This seven year(s) day=bu uzoq vaqt mobaynida;

The seven wonders of the world = dunyoning etti mujizasi;

The seven deadly sins = yeti kechirilmas gunox;

With sixof everything =qonuniy nikohda bo'lmoq (ayol haqida);

The city of the seven hills = '' Rim''va boshqalar.

Bu kabi sinonimik katorlarning vujudga kelishi bir turdagi struktural modellar asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, kuzatuvlarga qaraganda, FBlar sinonimik katorlari modellari ko'pgina tillarda o'zlarining struktural barkarorligini saklab koladi. Bu esa turli xil tillarda sinonimik katorlarning shakllanishi universal ekanidan dalolat beradi.

Tilda aniq iboralardan tashkari, to'liq bo'lmagan ya'ni bir tildan boshka tilga tarjima kilingan ibora(kalka)lar xam mavjud bulib, ularning leksik-grammatik

tarkibi asos FBnikidan birmuncha fark kiladi. Leksikografiya va tarjima amaliyotida bu kabi iboralar “frazeologik o‘xshashliklar (analoglar)” deb yuritiladi.

FB o‘z tarkibida turli xil o‘zgarishlarni yuzaga keltira oladi, ammo bu uzgarishlar barcha tarkibiy kismlarni kamrab oladi deb ayta olmaymiz. Chunki ayrim tarkibiy kismlar mutlako turg‘un xolatda bo‘ladi. Demak, bu uzgarishlar fakatgina turg‘un bo‘lmagan, yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan o‘zaro almashinuvlar natijasida vujudga keladi. Misol sifatida quyidagilarni ko’rib chiqishimiz mumkin.

Be (all) at sixes and sevens = “tartibsiz xolda bulmoq, xaroba xolda bo’lmoq ”;

Set on six and seven

Set on cinque and sice = “ eng katta nomerga pul tikish ya’ni barcha narsani o‘rtaga qo‘yib tavakkal qilish”.

Frazeologizmlar shakllanishi jarayonida asosiy frazeoshakl ham u yoki bu darajada o‘zgarishga yuz tutishi mumkin. Quyida zamonaviy ingliz tiliga xos bo‘lgan frazeologik birlikning shakllanishini misol sifatida keltirimiz:

It is the last straw that breaks the camel’s back .“Oxirgi xas tuyaning belini sindiribdi”,ya’ni“oxirgi tomchi sabr kosasini to‘ldiradi”, kontekstda tahlil qilamiz:

”As the last straw breaks the laden camel’s back, this piece of underground information crushed the sinking spirits of Mr. Dombey” (Ch. Dickens, Dombey and Son, ch. II).

1. The last straw – (“oxirgi tomchi (sabr kosasini to‘ldirgan)”, “sabrning chegarasi”),kontekstda: This was the last straw. He was throwing up her lawless girlhood love to her as an offence (Th.Dreiser. The Titan, ch. XIX);

One look showed Swithin his condition. Drunk again. This was the last straw, (J. Galsworthy. Caravan, Salvation of a Forsyte, p.110);

Hector (outraged). This is thelast straw, Dad: you have insulted my wife (B. Shaw. Man and Superman, act IV);

2. break the camel’s back (“sabr kosasini to‘ldirmoq”, “ishni tugatmoq”), kontekstda ko‘rib chiqamiz:

So Godfrey had at last succeeded, he thought grimly. It was clear that he had supplied the straw that broke the Gestapo camel's back (M. Dodd. SowingtheWind, ch. XXIII).

Ingliz tilida turg‘un so‘z birikmalari hosil bo‘lishining yana bir usuli bu alohida shaxslar bilan (yozuvchilar, shoirlar, davlat va jamoat arboblari, jurnalistlar va boshqalar) bog‘liq bo‘lgan frazeologizmlardir. Misol uchun quyidagi frazeologizmlar prezidentlar nomlar ular olib borgan siyosat bilan uzviy bog‘liq: big stick - “kuch ishlatish siyosati”, “kuch siyosati”, lunatic fringe – “ekstremistlar”, hat in the ring - “saylov oldi kompaniyasida ishtirok etish uchun” (T. Ruzvelt); New Frontiers – “yangi istiqbollar” (Dj. Kennedi); Silent Majority – “sukutdagi ko‘pchilik, xalq” (R. Nikson) va boshqalar.

Bu turdagi kabi semantik frazeologizmlar tilda sinalgan modellar asosida shakllanadi. Masalan,“ad’ektiv+substantiv” – the forgotten man [“unutilgan inson”, ”taqdirning o‘gay bolasi” ya’ni ”hech kim o‘ylamaydigan inson” (mazkur ibora ushbu ma’noda birinchi marta Nyu York shtati gubernatori F.D.Ruzvelt tomonidan 1932 yilda saylov oldi kompaniyasida qo‘llanilgan edi).

Frazeologizmlar nazariyasini sistem-lug‘aviy talqinda ko‘rib chiqar ekanmiz, FBlar nutqda erkin qo‘llanish jarayonida omonim so‘zlar bilan qay darajada bellasha olishini ham nazardan qochirmasligimiz kerak. FBlarning til sistemasi bilan aloqasini mustahkam saqlab qolgan tarkibiy qismlari tilning leksik, so‘z yasalishi va fonetik sistemalari tomonidan bo‘ladigan ta’sirlarga ko‘proq moyil bo‘ladilar. Bu holat FB tarkibiy qismlarining leksik, so‘z yasalishi, fonetik jihatlarga nisbatan ma’lum darajada muvofiqligini frazeologiyada ham saqlab qolish imkoniyatini beradi. So‘z erkin holatda va FB tarkibiy qismi sifatida qo‘llanilishi jarayonida o‘zaro munosabatga kirishish yoki o‘zaro tenglashtirish kabi xususiyatlarini namoyon qiladi. Chunki so‘z FBning tarkibiy qismi sifatida ham o‘zining ayrim o‘zgaruvchanlik xususiyatlarini saqlab qola biladi.

Frazeologik derivatsiya avvalambor Frazeologik birlikninghosilbo‘lishidir. Bunda FB shakllanishining barqaror usullari birinchi darajali ahamiyat kasb etadi ular turli omillarga borib taqaladi, chunki frazeologik derivatsiya frazeologik

aloqalar, frazeologik shaklning turg‘unligi, frazeologiyalashish, frazeologiyada sinonimiya va variantdoshlik kabi hodisalar bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shu boisdan, quyidagi asosiy usullar bilan frazeologik birliklarning shakllanishi amalga oshadi: 1. frazeoforma tarkibiy qismlarining parchalanishi; 2. FB tarkibiy qismining kengayishi; 3.frazeoformaning o‘zgarishi; 4. qo‘llanish jarayonida FB tarkibiy qismining ajralib chiqishi.

Derivatsion asos - bu asoslanadigan negiz (ya’ni yangi FBda mujassam buluvchi mazmun) ning yuzaga kelishiga omil bo‘luvchi til yoki nutq materiali hisoblanadi. Bunda so‘z yasalishining leksik-semantik usuli qo‘llaniladi.

Frazeologik birliklarning hosil bo‘lishini semantik-struktural tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, hosila FB tarkibidagi tarkibiy qismlar boshlang‘ich ahamiyatini saqlab qoladilar. Buningsiz FB o‘z ichki shakli va obrazliligini yo‘qotgan bo‘lar edi.

Ingliz tilida FBlar hosil bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari umumiy xulosasi shuni ko‘rsatadiki, FB hosil bo‘lishining eng mahsuldor, samarali usuli bu yuqori semantik zaxiraga ega bo‘lgan so‘z birikmalarining to‘liq yoki qisman o‘zlashtirilishi hisoblanadi. O‘zgaruvchan so‘z birikmalarining o‘zlashtirilishi natijasida to‘la yoki qisman o‘zlashtirilgan FBlar shakllanadi.

FBlarning hosil bo‘lish yo‘llarini o‘rganish, ularning asosini aniqlash FBlar vujudga kelishining qonuniyatlari hamda o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib berishga imkon yaratib beradi. Shu boisdan, uzluksiz ravishda yangi birliklar bilan boyib borayotgan ingliz tili frazeologik birliklarining paydo bo‘lish hamda rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganish, ularning kelib chiqish manbalarini tahlil qilish shubhasiz lingvistik jihatdan beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

Frazeologiyani alohida til sistemasi sifatida o‘rganish nafaqat ilmiy frazeologik tadqiqotlar, balki amaliy va nazariy frazeologiya uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki turli frazeologik lug‘atlar tuzish jarayonida albatta frazeologik sistema aniqlanadi hamda unga asoslaniladi. Frazeologiya o‘zining

alohida til sathi yoki sistemasiga ega ekanligi so‘nggi yarim asr mobaynida yetuk olimlar tomonidan ta’kidlab o‘tildi. Frazeologik sistema o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Agarda tildagi barcha sistem elementlarning doimiy o‘zaro bog‘liqlik xususiyatidan kelib chiqsak, frazeologizmlar quyi sath birliklari asosida, ya’ni so‘zlar integratsiyasi vositasida shakllanadi. Yuqori sath nuqtai nazaridan frazeologizmlarning o‘zlari xuddi so‘zlar kabi gapning tashkil qiluvchisiga aylanadi. Gaplar frazeologizmlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri integratsiya qiladi, erkin so‘z birikmalari so‘zlarni gapga olib kiradi. Chunki erkin so‘z birikmasi so‘z bilan gap orasida vositachi sifatida so‘zni gapning konstituentiga aylanishida asosiy o‘rin tutadi. Frazeologizmlar ham gapga so‘z birligi yoki sintagma shaklida, so‘z kabi tayyor holda kiradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ta’kidlash lozimki, tilning frazeologik sistemasi faktik jihatdan mavjud, lingvistik jihatdan o‘z belgi va xususiyatlari bilan turadi. Frazeologik sistema birliklari barcha til sathi birliklarining xususiyatlariga o‘xshash izomorf belgilarga egaligi tufayli leksema va gap oralig‘ida joylashgan birliklardir.

Umuman olganda, frazeologizmlar shakllanishini o‘rganish frazeologiyani o‘rganishdan birmuncha farqlanadi. Chunki frazeologizmlar shakllanishi jarayonida barcha frazeologik birliklar emas, balki asos bo‘la oladigan, potentsial, okkazional frazeologizmlar tahlil qilinadi va ular alohida birlik sifatida emas, balki semantik strukturaviy jihatdan o‘ziga mos keluvchi guruhning bo‘lagi sifatida o‘rganiladi. Bu holatda nafaqat alohida olingan asos frazeologik birliklar, balki, ularning ma’lum kategoriyalari, umumiy shakliy va semantik xususiyatlarga ega bo‘lgan asos frazeologizmlar guruhlari ham o‘rganiladi. Shunga ko‘ra, frazeologizmlar shakllanishini o‘rganish sohasi o‘z predmeti va tadqiqot metodiga ega degan xulosaga kelishimiz mumkin.

IKKINCHI BOB. INGLIZ TILI FRAZEOLOGIZMLARINING UMUMIY XARAKTERISTIKASI

2.1. Sinonimiya va variantdoshlikning turg‘un iboralar shakllanishida tutgan o‘rni.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, tildagi frazeologik iboralar o‘z sistemasiga ega. Ushbu sistemani shakllantiruvchi omillardan biri birliklarning bir-biri bilan paradigmatik munosabatda bo‘lishi, ya’ni sinonimik, antonimik, variativlik va derivatsion hamda polisemantik xususiyatlarga ega bo‘lishidadir. Leksik sistemada mavjud bo‘lgan ushbu paradigmatik xususiyatlar frazeologik sistemaga ham to‘la xosdir.

Tildagi ma’nosi o‘xshash frazeologizmlar frazeologik sinonimlar deyiladi. Ular ham leksik sinonimlar kabi, stilistik jilosi va ishlatilish doirasi jihatidan guruhlarga ajratiladi. Bir qator tillar, shu jumladan olmon tili frazeologik sinonimlarining struktur-semantik, funktsional xususiyatlari tilshunoslarning ilmiy izlanishlari ob’ektiga aylandi. Har qanday tilning frazeologik iboralari avvalo stilistik vosita sifatida ma’lum. Shuning uchun bo‘lsa kerak, tilda stilistik jiloga ega, bir-biri bilan sinonimik munosabatda uchrovchi iboralar juda ko‘p. Ushbu fikrni isbotlash maqsadida quydagi bir strukturaga ega bo‘lgan frazeologik sinonimlarni keltiramiz. Bizning nazarimizda frazeologik iboralarda absolyut sinonimlarga mavjud emas degan fikr xakikatga yakinroqdir. Umuman olganda til xech qachon bir xillikni tan olmaydi.Til rivoji jaroyonida qanday yangi birlig paydo bulsa bejiz yuzga kelmaydi u nimanidir nomlaydi ifodalaydi.Ushbu xolat leksikaga xam taalluqli. L.V.Shevelyova keltirgan misol esa bir frazeologizmning leksik variantidir.

Haqiqatdan ham, “o‘zaro teng ma’noga ega frazeologik sinonimlarning soni juda oz”. Masalan, deb yozadi U.Tursunov va boshqa tilshunoslar,- “burni ko‘tarildi” va “dimog‘i shishdi” iboralari uchun umumiy mundarija “kibrlanmoq” bo‘lsa-da, bu umumiy ma’noning gavdalanishi turlicha. Bundan qatiy nazar, “burni ko‘tarildi” iborasiga nisbatan “dimog‘i shishdi” iborasida ma’no jilosi kuchliroq.

Bulardan tashqari ba’zi frazeologik sinonimlar ideografik nuqtai nazardan, ya’ni o‘ziga xos nyuanslari bilan ham bir-biridan farqlanadi. Masalan, “mast” ma’nosini ifodalaydigan quyidagi biriklarni qiyoslang: Bulardan tashqari bir qator frazeologik sinonimlar tarixiy jihatdan hamda o‘zga tillardan o‘zlashtirilganligi tomonidan ham farqlanishi mumkin, lekin bunday hodisalar ko‘p uchramaydi.

Lug‘aviy izohda frazeologik paradigmatik aloqalarning muntazamligiingliz frazeologiyasida frazeologik birliklar shakllanishining muntazamligini quyidagi aspektlarda ko‘rib chiqadi: derivatsiya jarayonidagi semantik transformatsiyalar; o‘xshash hosilalarning shakllanishi; variantdoshlik, sinonimiya, antonimiya, polisemiya negizida izohli va tarjima lug‘atlarda frazeologizmlarning tabiatini namoyon qiluvchi vositalar hamda sinonimiya, antonimiya, polisemiya kabi hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqish va ularning tarjima va izohli lug‘atlarda yoritilishini tahlil etish frazeologizmlarning asl mohiyatlarini ochib berishda katta ahamiyat kasb etadi.

Variantdoshlik frazeoformaning derivatsion yangilanishi sifatidaturli xil frazeologik variantlarni (leksik, leksik-grammatik, orfografik, kvantitativ va boshqalar) o‘rganishga bag‘ishlanadi.

Frazeologik variantdoshlikni izohlashda A.V. Kunin nazariyasidan kelib chiqqan holda ish yuritsak maqsadga muvofiq bo‘ladi “Frazeologik variantlar-ma’nosining miqdori va sifati, stilistik va sintaktik vazifalariga ko‘ra o‘xshash, qisman turli leksik tarkib, turli so‘z shakllari yoki so‘z tartibi bilan farqlansada, umumiy leksik invariantga ega bo‘lgan frazeologik birliklar turi hisoblanadi [27;80].

Frazeologik variantni tasvirlovchi ushbu ta’rif keng tarqalgan bo‘lib, ingliz tilida mavjud bo‘lgan FBlarning areal variantlariga aynan mos keladi. Hozirgi zamon ingliz tili frazeologiyasida quyidagi hududiy variantlar uchraydi:

1.FBlarning leksik variantlashgan turi barcha variantlashgan FBlarning to‘rtdan uch qismini tashkil qiladi.

Hududiy FBlar leksik tarkibining yangilanishi ularning funktsional ahamiyatini saqlab qolish, og‘zaki nutqni boyitish, uni yanada aniq bayon qilish uchun amalga oshadi.Masalan:

put the hard word (acid) on (“pul bilan ish bitirmoq”, “shilqimlik qilmoq”);

poke mullock (borack, muck) at (“jig‘iga tegmoq, birovning ustidan kulmoq”) va boshqalar.

2. Kvantitativ variantlashish FB tarkibining reduktsiyaga uchrashi

flat out like a lizard drinking: flat out [1) “yuz tuban yotish”,2) “astoydil mehnat qilmoq]”;

shoot through like a Bondi tram:shoot through [“darrov qochib qolmoq, to‘satdan g‘oyib bo‘lmoq”],

yoki uning tarkibining kengayishi bilan amalga oshadi:

mad as a snake: mad as a cut snake [1)”axmoq, g‘alati”, 2) “xafa”],

get on like a bushfire: get on like a proverbial bushfire [“muvaffaqiyat qozonmoq”].

3. Grammatik variantlashish FB tarkibidagi biron bir so‘z grammatik shaklining o‘zgarishi bilan yuz beradi: drink with the fly (flies) [“yolg‘iz ichmoq”];cut a caper (capers) [“sakramoq”].

Sinonimiya hodisasining frazeologizmlar rivojlanishidagi o‘rnini o‘rganish, sinonim FBlarning turli (stilistik, ideografik, stilistik-ideogrfik) turlarini tahlil qilish ularni lug‘at maqolasida ta’riflash jarayonini birmuncha osonlashtiradi.

Ingliz frazeologiyasining jadal rivojlanishi FBlar o‘rtasidagi sinonimik aloqalarning rivojlanishini ham tezlashtirmoqda. Bunda hosila FBlar keng tarqalgan umumingliz FBlari bilan sinonimik

aloqaga kirishmoqda:Masalan,

likea (dying) duckinathunderstorm //

like a half-stunned [“baxtsiz, tushkun ko‘rinishda”].

Ammo ko‘p hollarda sinonim Fblarning stilistik xususiyatlari bir-birinikidan farq qiladi. Misol uchun, get a kick [so‘zlashuv uslubidagi FB] // get a bang (out of smth.) [jargon] [“biron narsadan zavqlanmoq”]. Buning natijasida stilistik,

ideografik, stilistik-ideografik kabi turli xil sinonim FBlar paydo bo‘lmoqda va so‘zlashuv jarayonida faol qo‘llanilmoqda. Har bir frazeologik sinonimning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, unga to‘g‘ri baho berish uchun uni sinonimiya uyasi ichidagi boshqa sinonim FB bilan qiyoslab o‘rganish lozim. Bu taqqoslash natijasida ular orasidagi o‘xshash jihatlar va farqlanadigan tomonlari yaqqol namoyon buladi. Ular orasidagi farqlar oz bo‘lsa, biri ikkinchisining urniga nutq jarayonida qo‘llanilish imkoniyati shuncha ortadi. Misol uchun quyidagilarni olib ko‘rishimiz mumkin:

To come to bat (sl.) “qiyin masalaga duch kelmoq, og‘ir sinovga duch kelmoq”;

to come out (of) the little end (or the horn) “omadsizlikka uchramoq, axmoqona vaziyatga tushib qolmoq; mulzam bo‘lmoq, sharmandasi chiqmoq;

to spell baker “mushkulotlarga duch kelmoq, mushkul ishni bajarmoq”;

to get oneself into a spot (sl.) “falokatga yo‘liqmoq, og‘ir ahvolga tushib qolmoq”;

to run against a stump “qiyinchiliklarga duch kelmoq”; to go up a tree “o‘ta mushkul ahvolda qolmoq”;

to get that way “ko‘ngilsiz vaziyatga tushib qolmoq”.

Frazeologizmlarni tahlil qilish jarayonida variantdoshlik va sinonimiyaning o‘zaro aloqasini o‘rganish variantdoshlik va sinonimiyani farqlashda uchraydigan ayrim murakkabliklarning yechimini topishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Variantdoshlik va sinonimiyani farqlashda bir qator stilistik faktorlar (obrazlilik, ekspressivlik va boshkalar) qiyinchilik tug‘diradi. Bu faktorlarni FBlarning asosiy xususiyatlari deb biladigan tilshunoslar, ularni aynan o‘xshashlik tushunchasi bilan zid deb biladilar. Mazkur tilshunoslar aynan o‘xshash birliklarni variantlar sifatida baholashadi. Bunda ular eng muhim xususiyat deb, variantlar o‘rtasidagi obrazning umumiyligini bilishadi. Bunda stilistik belgi sinonimlarni farqlash uchun xizmat qiladi deb hisoblaydilar[26].

[26] Bushuy T.A. Phraseological Equivalentation as a problem of Contrastive Lexicography // Contrastive Linguistics.– Sofia, 1996. - №1.–P.30-35.

Boshqa bir guruh tadqiqotchilar variantdoshlikni yanada kengroq talqin qiladilar. Ularning fikrlaricha, variantlar stilistik xususiyatlariga koʻra, u yoki bu darajada farqlanishi mumkin boʻlgan qisman oʻxshash boʻlgan birliklar sanaladilar. Maʼlum oʻzgarishlar variantlarning oʻxshashligiga putur etkazmaydilar. Bu tadqiqotchilarning fikrlariga koʻra, stilistik aspekt variantlarni yoki bir paytning oʻzida ham variantlar ham

Sinonimlarni farqlash uchun xizmat qiladi. Shunga koʻra, variantlarni turlarga ajratish ham sezilarli darajada kengayadi.Variantdoshlik va sinonimiyani toʻla tushunib yetish uchun invariantlik printsipiga amal qilishimiz kerak. Chunki u, nafaqat bu hodisalarning asl mohiyatini koʻrsatib beradi, balki variantlarning farqlanishi va ularning sinonimlardan farqqiluvchi jihatlarini ochib beradi.

Tilda faol qoʻllaniluvchi frazeologizmlar oʻz variantlariga egadirlar. Misol uchun quyidagi misollarni koʻrib chiqamiz:

full as a good (boot, bull, egg) “etikdoʻzdek mast ”;

bald as a bandicoot (billiard ball)“kal”;

rough as bags (goats knees) “qoʻpol”;

silly as a cut snake (wheel, two bob watch) “goʻl”.

Tadqiqotlar natijasiga tayangan holda shuni aytish lozimki, frazeologik variantdoshlik hodisasi turli grammatik qatlamlarga kiruvchi frazeologizmlarni qamrab oladi:

lean on the broken reed (britanizm)

relay on a deceptive support lean on the broken straw (kanadizm)

relay on a deceptive support old bloke (buffer, card, codger) (britanizm)

a grumbler old coot (kanadizm)

a grumbler burst (split) somebody’s sides (with laughing) (britanizm)

to laugh heartily split somebody’s (a) gut (with laughing) (kanadizm)

to laugh heartily pileup (stash) the bread (kanadizm)

make much money pile up the rocks (britanizm)

make much money like five (kanadizm) – very quickly at a high speed .

Ingliz tili og‘zaki nutqida ko‘p qo‘llaniluvchi frazeologizmlar boshqalarga nisbatan ko‘proq variantlariga ega hisoblanadi:

amer. jerk (yoki snatch) smb. bald-headed [“kim bilandir qo‘pol muomalada bo‘lmoq”];

come (ili get) down to cases [“maqsadga ko‘chmoq”, “gapning po‘skallasini aytmoq”];

fix (ili stop) smb’s clock [“kimningdir og‘zini yopmoq.”];

be (ili sit) on a cloud [“juda baxtli bo‘lmoq”] va boshqalar.

Shuni ta’kidlash lozimki, FB leksik tarkibining u yoki bu o‘zgarishga yuz tutishi (masalan, komponentning o‘zgarishi yoki yangi elementning paydo bo‘lishi) hodisasini variantdoshlikdan farqlash lozim va bu bir qator holatlarda namoyon bo‘ladi. Misol tarzida quyidagi frazeologizmlarni tahlil qilamiz:

to keep the from the door //

FB – avstralizm to keep the dingo from the door;

to set the Thames on fire //

Avstralizm to set the Jarra on fire;

to sell smb. down the river //

FB – avstralizmto sell smb. down the creek;

as sick as a dog //

FB – avstralizmas sick as a swagman’s (blackfellow’s) dog.

Bu kabi holatlarda, odatda, leksik tarkibdagi substantiv komponent o‘zgarishga yuz tutadi va bu o‘zgarish natijasida yangilangan FB yanada chuqur ma’no kasb etadi.

Zamonaviy ingliz tilida predloglarning boshqa bir predlog bilan almashinishi hisobiga ham yangi variantalr vujudga kelishi ko‘p uchraydi:

for (amer. in) ages [“bir umr”, “kim qachondan buyon”];

setone’scapat (amer. for) smb. [“kimnidir qo‘lga tushirmoq “qalliq ovi”, “kimningdir bo‘yniga osilmoq”];

beon (amer. in) thecards [“bo‘lishi mumkin”] va boshqalar.

Umuman olganda, variantdoshlik ingliz tili frazeologizmlarining shakllanishida katta o‘rin tutadi:

crock (lift yoki avstral.bend) one’s (yoki the) elbow [jargon ma’nosida “birovning oyog‘ini yalamoq”];

make (avstral.throw) eyesatsmb. (amer. givesmb. thebigeye) [“kimgadir ko‘z suzmoq “ko‘zi bilan otmoq”];

one’s eyes are bigger than one’s belly (amer.stomach) [“qorin to‘qu, ko‘zi och”];

(as) fit (amer. fine) as a fiddle [“soppa sog‘”, “bundan yaxshisi bo‘lmaydi”]; apart (amer. side) from [“...dan tashqari”];

be (yoki look) rosy about (amer. around) the gills [“sog‘lom ko‘rinishga ega bo‘lmoq”, “sog‘ ko‘rinmoq”];

get (have yoki take) a new lease of (amer.on) life [“yangi hayot boshlamoq”];

a new lease of (yoki on) life [“kuch to‘plamoq”];

flee (yoki run) for one’s life (avstral. flee, go, run for for the lick of one’s life) [“oldi orqasiga qaramay yugurmoq”];

button (yoki zip) one’s lip [“og‘zini ochmaslik”] va boshqalar.

Variantdoshlik va sinonimiya hodisalarining asl mohiyatini tushunib yetishda invariantlik printsipidan kelib chiqsak, variantlarning o‘xshash jihatlari, ularning sinonimlardan farqli tomonlarini ajratish ancha oson kechadi. Shu boisdan, A.V.Kuninning variantlar haqidagi nazariyasiga asoslangan holda aytishimiz mumkinki, invariant ularning ham shaklida, ham mazmunida saqlanib qolishi kerak. Mazmuniy invariantni ko‘rib chiqishda biz FBka denotativ, signifikativ va konnotativ ma’nolarga ega bo‘lgan bir butun birlik sifatida qaragan holda murojaat qilishimiz kerak bo‘ladi. Bulardan tashqari, stilistik aspekt ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u ayrim hollarda denotativ va signifikativ aspektlardan yuqori turadi yoki ular bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Yuqorida ta’kidlangan barcha jihatlarni inobatga olgan holda o‘xshash frazeologizmlar tarkibida invariant belgilarning funktsional semantik

xususiyatlaridan kelib chiqib variantdosh frazeologizmlarni aniqlash mumkin. Bu jarayonda variantlar ham sifat, ham son jihatidan bir biriga mos kelishi kerak.

Misol uchun,FBlar put the hard wordon va put the hard acidon variantining ikkita ma’nosi bor:1)”kimdandir qarzga pul so‘ramoq”, ”kimgadir iltimos qilmoq”, 2)”qizlarga tegajog‘lik qilmoq” va mana shu ikkala variant ham teng kuchga ega.

Ayrim hollarda variantlar orasida tengsizlik vujudga kelsada, ular variantlarning o‘xshashligiga putur yetkaza olmaydi. Ular uch xil tarzda namoyon bo‘ladi:

1) Variantlar qo‘llanilish doirasining soniga ko‘ra farqlanadilar. Misol uchun,for all the tea in China (“hech nimaga, hech qanday boylikka”) varianti for all the rice in Chinavariantiga qaraganda ko‘proq qo‘llaniladi va ko‘proq konnotativ mazmun kasb etadi.

2) Variantlarxronologik ko‘rsatkichlariga ko‘ra ham farqlanadi. Masalan, poke borak at, poke mullockat,poke borak muck at(birovning ustidan kulmoq) frazeologizm variantlari orasida poke borak atfrazeologizmi eng avval shakllanganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Chunki ushbu frazeologizmning lug‘atlarda paydo bo‘lishi 1885 yilga to‘g‘ri keladi. Stick one’s bib in(birovning ishiga burun suqmoq) frazeologizmini hammisol tariqasida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, keyingi paytlarda ushbu frazeologizmning varianti sifatida ingliz tilida poke one’s bib in frazeologizmi keng qo‘llanila boshladi.

3). Variantlar geografik nuqtai nazardan ham farqlanadilar. Ayrim hududlarda keng qo‘llaniluvchi FBlar ikkinchi bir hududda kamroq qo‘llanilishi mumkin. Misol uchun, Wool loo moo loo Yank (o‘zini amerikalik sifatida tanishtiruvchi olifta) frazeologizmi ko‘proq Sidneyda qo‘llanilsa, Fitzroy Yank frazeologizmi Melburnda ko‘p ishlatiladi.

Albatta bu faktorlar ma’lum bir sharoitlarda variantlarning o‘xshashligiga putur yetkazishi mumkin. Buning natijasida yangi mustaqil birliklar yuzaga kelishi mumkin. Misol sifatida fair dinkum frazeologizmini ko‘rsatishimiz mumkin. Ushbu FBning varianti bo‘lgan square dinkum frazeologizmi yaqin yaqinlarga qadar “haqiqiy, asl” ma’nosida qo‘llanilar edi. Ammo o‘zining juda ham ko‘p

qo‘llanilishi natijasida fair dinkum frazeologizmi yana bir mazmunga (Xudo haqqi, chin so‘zim) ega bo‘ldi. Ushbu faktor natijasida fair dinkum va square dinkum frazeologizmlari o‘zlarining variantlik xususiyatlarini yo‘qotishdi.

2.2. Frazeologiyada antonimiya hodisasinig o‘ziga xos xususiyatlari

Kurrai zaminda nimaiki yaratilgan bo‘lsa, barchasining qarama-qarshi tomoni mavjud. Yer osmonga, o‘t suvga, issiq sovuqqa, uzoq yaqinga, achchiq shiringa, yosh qariga, oq qoraga, chiroyli xunukka, toza iflosga, havas hasadga, abjir tanbalga, keng torga, to‘g‘ri o‘g‘riga zid yaratilgan.

Antonim FBlar izohli lug‘atlarda ham, tarjima lug‘atlarda ham butunlay qarama-qarshi ma’noli shakllardan tashkil topgan. Misol uchun quyidagi antonim FBlarni ko‘rib chiqamiz: substantiv antonim FBlar: inside squatter – “katta fermer” // scrub cocky – “kichkina fermer”; fe’lli antonim FBlar: keep out of the rain – “ko‘ngilsizliklardan qochish” // stir the possum – “ko‘ngilsizliklarga bosh suqish”.

Ko‘pincha antonim FBlar inson fe’l-atvori va uning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar atrofida shakllanadi. Antonimik munosabatlarda bo‘lgan ko‘pgina FBlar bir ma’noli FBlar hisoblanishadi. Misol uchun, to spill the beans (so‘zl.)“sirni fosh qilmoq” va uning sinonimlari bo‘lgan yeyo to tip the (one’s) elbow = bend the elbow “rejani fosh qilmoq” va to blow the gab (the gaff) (sl.) “og‘zidan gullab qo‘ymoq”; to make a break / a bad break “og‘zidan gullab qo‘ymoq”; to let the cat out of the bag “sirni ochib, o‘zini sezdirib qo‘ymoq” kabi FBlarga to button up (one’s) lip “sir saqlamoq” FB antonim sanaladi.

Ko‘p ma’noli FBlar o‘zlarining bitta yoki ikkita ma’nolarigagina antonimlarga egadirlar. Masalan, to sit on one’s hands FB birinchi ma’nosi “arang qarsak chalmoq”ga to get (give) a big (good) hand “davomiy olqishlar bilan kutib olinmoq” va to bring down the house “jo‘shqin kutib olinmoq”. Ikkinchi ma’nosi “hech narsa bilan shug‘ullanmaslik”ga to come up to the chalk, – “shijoatli mehnat qilmoq” FB antonimik aloqada bo‘ladi.

To spill the beans (razg.) “sirni ochib qo‘ymoq, fosh qilib qo‘ymoq, og‘zidan gullab qo‘ymoq” va uning sinonimlari to tip the (one’s) elbow ═ bend the

elbow “sirni ochmoq” va to blow the gab (the gaff) (sl.) “ og‘zidan gullab qo‘ymoq, g‘iybat qilmoq, sotqinlik qilmoq, biron kimga qarshi ko‘rsatma bermoq”; to make a break / a bad break “og‘zidan gullab qo‘ymoq; noto‘g‘ri qadam qo‘ymoq”; to let the cat out of the bag “kimningdir sirini ochib qo‘ymoq, og‘zidan gullab qo‘ymoq, o‘zini bildirib qo‘ymoq” kabi frazeologizmlarning barchasi to button up (one’s) lip “sir saqlamoq” frazeologizmining antonimlari sanaladi. Ushbu frazeologizmning o‘zi esa to be under one’s hat “qattiq sir saqlamoq”, to draw the curtain(on, over) smth. “nimanidir yashirmoq, og‘zini ochmaslik.” va to keep one’s own counsel “nimanidir yashirmoq not to breathe a syllable (a word) “lom mim demaslik, sir saqlamoq frazeologizmlari bilan sinonimik aloqalarga kirishadi.

To keep one’s shirt on “xavotir olmaslik, o‘zini xotirjam tutish” frazeologizmi va uning sinonimi to hold one’s horse (sl.) “sabrli bo‘lmoq, o‘zini osoyishta tutmoq” frazeologizmi o‘zaro sinonimik aloqada bo‘lgan bir qator antonim frazeologizmlarga ega.Bular quyidagilar:

to get in one’s hair “kimningdir asabiga o‘ynamoq, bezovta qilmoq, joniga tegmoq”;

to have kittens, to have a litter of Kittens “qattiq xavotirga tushmoq, qattiq jahl qilmoq, sarosimaga tushmoq”;

to go up in the air “jahli chiqib ketmoq, kuchli hayajonga chulg‘anmoq”;

to be one’s ear “qattiq jahl qilmoq, o‘ta asabiy holatda bo‘lmoq, qattiq hayajonlanmoq”;

to get somebody’s Indian up “kimningdir jahlini chiqarmoq, kimnidir xafa qilmoq”;

to throw a fit “g‘azabdan quturib ketmoq”;

to have it in for smb. “kimgadir jahl qilmoq”;

to get one’s hammer out “kimdandir o‘ch olshni istamoq, kim bilandir dushmanlarcha munosabatda bo‘lmoq, kimnidir xushlamaslik”;

to hit the ceiling “qattiq xavotirga tushmoq, qattiq jahl qilmoq, sarosimaga tushmoq”;

to get under one’s skin “kimningdir asabiga o‘ynamoq, kimningdir joniga tegmoq.”;

to blow a fuse (a gasket) “qattiq xafa bo‘lmoq, jahldan o‘zini tutib tura olmaslik, jahldan o‘zini yo‘qotish”;

to blow one’s top (cap, lid, stock) “qattiq xafa bo‘lmoq”;

to give smb. a pain in the neck “kimningdir asabiga o‘ynamoq, kimningdir joniga tegmoq”.

To lay down (to bury) the hatchet “tinchlik o‘rnatmoq, dushmanlikka chek qo‘ymoq” frazeologizmiga to take up the to mahawk “urush boshlamoq, harbiy harakatlarni boshlamoq” frazeologizmi antonim bo‘la oladi.

To keep the run of something “ishdan boxabar bo‘lmoq, nimanidir ko‘zdan qochirmaslik” frazeologizmi to lose the run of something “biron ishdan bexabar bo‘lmoq, kimnidir kuzatishdan to‘xtash” ma’nolarini beruvchi frazeologizm bilan antonimik munosabatga kirishadi.

To do smb. dirt “kimgadir chox qazimoq, kimgadir ifloslik qilmoq, kim bilandir yomon munosabatda bo‘lmoq” frazeologizmi to die dog for smb. “kimgadir o‘ta vafodor bo‘lmoq, kim uchundir jon berishga tayyor bo‘lmoq” frazeologizmining antonimi sanaladi.

To cut up soft “sog‘ligiga ko‘ra biron musobaqada qatnashishga loyiq bo‘lmaslik” frazeologizmi to be hitting on all four (six) cylinders “o‘zini juda yaxshi his etmoq, formada bo‘lmoq, ishga layoqatli bo‘lmoq” frazeologizmiga antonim hisoblanadi.

Ko‘p ma’noli FBlarning ayrimlari faqatgina o‘zlarining u yoki bu ma’nolarigagina antonimlarga egadirlar. Misol uchun, to sit on one’s hands frazeologizmi o‘zining birinchi hisoblangan “qarsak chalmaslik” ma’nosiga antonim sifatidaikkita frazeologizmga ega. Ular quyidagilar:

1.to get (give) a big (good) hand “davomiy olqishlarga sazovor bo‘lmoq”;2.to bring down the house “e’tirof etilmoq”.

Ikkinchi ma’nosiga esa to‘liq mos keladigan antonimga ega emas. Misollardan ko‘rinib turibdiki, frazeologizmlar doirasida antonimiya hodisasini

o‘rganish, ularning lug‘atlarda bayon qilinilishini tahlil etish birmuncha murakkab sanaladi va o‘ziga xos yondoshuvni talab qiladi.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

Ingliz tili frazeologik birikmalarining umumiy lug‘aviy xarakteristikasini mukammal tahlil qilish ingliz tilida frazeologik birliklar hosil bo‘lish yo‘llarining asosiy lingvistik xususiyatlaring mohyatini anglashga xizmat qiladi. Jumladan,

1. Nominativ xarakterdagi FBlar eng keng tarqalgan FBlardan hisoblanishadi va ularning tarkibiy qismlari o‘zaro bir biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lishadi. Masalan: be (have) dingbats [1) “axmoq bo‘lmoq”]; put the fangs (nips, hooks) in [“qarz olmoq”]; haven’t Buckley’s (bolter’s) [“hech qanday imkoniyatga ega bo‘lmaslik; chorasiz qolish”] va boshqalar.

2. Fe’lli FBlar (FFB) gap tarkibida qat’iy chegaralangan tartibda joylashishadi. Ularning valentlik aloqalari quyidagi to‘rtta struktural modelga tayanishadi: 1)N1+FFB; 2)N1+FFB+N2; 3) N1+FFB+A; 4)N1+FFB +N2+A [N1-sub’ekt; N2-ob’ekt; A-hol]. “N1+FFB” modeldagi amerikanizmni ko‘rib chiqamiz: ”I might of known he’d show up stewed and spill the beans. Oh maybe the dean won’t hand me hell proper”.

3.Ingliz tilining derivatsiyaga moyil bo‘lgan FBlari odatda urf odatlarga, an’analarga, etnikmunosabatlarga, tabiathodisalarigako‘proqdaxldorbo‘ladilar:1) variantlashish – smoke like a Baptist Day bonfire // smoke too much like a winter tilt (Newfoundland) // smoke too much; 2) sinonimiya– crowbar palace (slang) – a jail; skookum house 3) tematikqator– moo-moo maker (slang) – a cattle Yuqorida ko‘rsatilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, frazeologik shakllanish, u qay tarzda kechishidan qat’iy nazar, tilni yorqin, jo‘shqin, ma’nodor FBlar bilan boyitadi. Ayrim neologizmlarning jamiyat tomonidan qabul qilinishi, ayrimlarining esa aksincha, inkor qilinishi bir qancha faktorlarga bog‘liq bo‘lgan hodisadir. Eng avvalo, bu hosilaning oldiga qo‘yilgan nominativ funktsiyaga mos kelish yoki kelmasligiga bog‘liqdir.

UCHINCHI BOB. O‘ZBEK TILDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING PRAGMALINGVISTIK TADQIQI

3.1 Turg‘un birikmalar ma’nolari ko‘chishining lingvokul’turologik aspekti

Tildagi turg‘un birikmalar ma’nosining ko‘chishi dunyodagi voqea-hodisalarni yanada chuqur o‘rganish va tanish natijasida, insoniyat fikrlash qobiliyatining taraqqiyoti tufayli vujudga kelmoqda. Texnika va ilm-fanning o‘sishi, tilning egasi, uning yaratuvchisi bo‘lgan halqning qo‘shni ellar bilan aloqada bo‘lishi, ular bilan savdo-sotiqning kuchayishi natijasida bir tildan ikkinchi tilga o‘tgan so‘zlarning xisobiga ham til boyib boradi. Shuning uchun tildagi turg‘un birikmalar ma’nolarining ko‘chishini jamiyat tarixi bilan birgaliqda olib tekshirish lozim bo‘ladi.

Ma’lumki, kishilar predmetga uning muhim harakterli belgisiga ko‘ra nom beradilar Muayyan predmet bir emas, bir necha harakterli belgiga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ma’lum bir predmetga ba’zilar uning bir belgisiga qarab, yana boshqalar esa boshqa xususiyatlariga qarab nom berishi mumkin. Demak, nomlanishlar o‘z-o‘zicha emas, balki predmetning yoki narsalarning xarakterli xususiyatlariga ko‘ra, ya’ni muhimroq xisoblangan jixatlariga ko‘ra nomlanadi. Bunday nomlanishlar turg‘un birikmalar ma’nolarining ko‘chishi orqali yuzaga keladi. Masalan, bahorga nisbatan **ko‘klam** yoki Amir Temurga nisbatan **Soxibqiron** so‘zlarining nomlanishi ham ana shunday voqelashgan jarayon deb tushunilishi mumkin. Bundan shu narsa aniqki, turg‘un birikmalar ma’nosining ko‘chishi bilan ham predmetlar nomlanadi va unda muhim xususiyatlarni ochib beruvchi jarayonga e’tibor qilish birinchi o‘rinda turadi.

Ma’lum bo‘ldiki, har qanday nomni boshqa nom bilan, ya’ni narsalarning xususiyatiga yoki harakteriga mos kelmaydigan nom bilan almashtirish mumkin emas. Almashtirilgan yoki atalgan nom bilan predmet o‘rtasida qandaydir bog‘liqlik yaqinliq bo‘lishi kerak. Shu bilan birga nomi almashtirilgan narsaning muhim, ahamiyatli tomoni, xususiyati to‘g‘risida o‘quvchi yoki tinglovchida aniq tasavvur xosil bo‘lishi lozim. Ana shunda u haqiqiy nomlanishga ega bo‘ladi.

Masalan, "*oq oltin*" deyilganda hech kim qimmatbaho metallni tushunmaydi, hamma uchun bu *paxta* ekanligi ma’lum. Paxta - predmet nomi. Bu predmetni nomlovchi so‘z, ya’ni tasviriy ifoda shu predmetning xususiyatlar bilan voqealashib, uning ikkinchi nomi sifatida yuzaga keladi. Dunyodagi barcha tillarning lug‘at tarkibidagi so‘zlari o‘z ma’nosidan tashqari, ko‘chma ma’noga o‘tishi bilan boshqa bir predmet yoki hodisaning nomini atashga xizmat qiladi. Shuni ham aytish kerakki, turg‘un birikmalar ma’nolarining ko‘chishi yoki o‘zgarishi tasodifiy bir xol bo‘lmay, balki u hayot taqozosidir. Chunki tilning bu hodisasi hayotning turli jabxalari bilan, uning taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir.

Jamiyatda o‘zgarishlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, shunchalik, ko‘p tushunchalar paydo bo‘ladi. Bu tushunchalar tilda doimo yangi nom, yangi turg‘un birikmalar orqali emas, balki mavjud bo‘lgan so‘zlarni yangicha ma’nolar bilan qo‘llash orqali ataladi. Tilning shu xususiyatlari tufayli lug‘at tarkibi doimo sifat va miqdor jiqatidan boyib boradi.

So‘z ma’nolarining ko‘chishi va uning ilmiy taxlili umumiy tilshunoslikda turlicha talqin qilinadi:

Masalan, rus tilshunosi N.M.Shanskiy ko‘chma ma’no xosil qiluvchi hodisalarni uch turga ajratib ko‘rsatadi: O‘xshashlik, (metafora), yondoshlik, (metonimiya), vazifadoshlik, kabilar[27].

K.A.Levkovskaya esa ko‘chma ma’no xosil qiluvchi hodisalarni nemis tili manbalari asosida turlarga ajratayotganda Fakat metafora va metonimiyani ko‘rsatish bilan chegaralanadi[28]. Ushbu jarayonga ingliz tili dalillari asosida yondoshgan A.M.Raevskaya esa metafora va metonimiyani qayd etish bilan birga evfemizm va giperbola hodisalarni ham qeltiradi[29].

Badiiy matndan tashqari metaforik, ma’no ifodalangan turg‘un birikmalar predmetning nomi bo‘lib, nominativ fnktsiyada qolaveradi[30].

[27] (SHanskiy N.M. Ocherki po russqomu slovoobrazovaniyu i leksikologii. - Mosqva. 1959. str.153.)
[28] (Levkovskaya Q.A. Leksikologiya nemetskogo yazika. - Mosqva. 1956. str. 45-47)
[29] (Raevskaya A.M. English Lexicology Kiev, 1961 r. 101-103.)
[30] (B. Umarq.ulov) (qapanr: o‘zbek son. betlar 35-36.)

Badiiy metaforani o‘rganish jarayonida badiiy asarlarda uchraydigan metaforalar, darslik va ilmiy adabiyotlarda tuzilishiga ko‘ra ular turlicha nomlangan, leksik va birikmali metafora bir sostavli va ikki sostavli metafora[31].

Poeziyada uchraydigan metaforalar tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: sodda, kengaygan. Sodda metafora birgina so‘zdan tashkil topadi: kengaygan metafora ikki yoki undan ortiq so‘zlardan tuziladi.

Masalan, o‘zbek tilida *gumbaz* (osmon ma’nosida), *ilon* (sovuq odam ma’nosida), *arslon, lochin* (quchli odam ma’nosida), *tulki* (makkor ma’nosida) kabilar - sodda metafora; *po‘lat ot* (paxta terish mashinasi), *oq oltin* (paxta), *zangori olov* (gaz), *po‘lat qush* (samolyot) kabi metaforalar esa kengaytirilgan metaforalardir[32]. Bizningcha, badiiy metaforaga berilgan bu izox, to‘g‘rirog‘i faktik misollar, yuqorida qayd etilgan olimlarinng fikrga unchalik mos kelmaydi. Sababi badiiy metaforani sodda, tasviriy ifodalarni esa kengaytirilgan metafora deb tushunilganligida[33]. To‘g‘ri, tasviriy ifodalar ham turg‘un birikmalar ma’nosining ko‘chish usuli, ya’ni metafora yo‘li bilan xosil bo‘ladi. Lekin metafora bilan tasviriy ifoda bir narsa degani emas.

Haqiqatdan ham lug‘aviy ma’no taraqqiyotining bilish bir tomondan nima asosida nima kelib chiqqanini tushuna olishga imkon bersa, ikkinchi tomondan shu yangi atamalarni qay yo‘sinda, nimaga nisbatan ishlatish mumkinligi haqida tasavvur tug‘diradi. Masalan, "**yoshlik"** so‘ziga nisatan *umpning bahori;* **til** so‘ziga nisatan *aloqa vositasi*; (Usmonov S. Metafora. O‘zbek tili va adabiyoti. - 1964. 4-son. bet 36.) "**ona**" so‘ziga nisbatan *eng qechirimli zot,* "**olim**" so‘ziga nisbatan *ilm zaxmatqashi* tasviriy birikmalarning yaratilishi leksik ma’no taraqqiiyotini vujudga keltiruvchi usullardan biri metaforani yaxshi xis qilish oqibatidir.

Demak, metaforada ikki predmetning o‘xshash tomonlari bo‘lishi shart. Shuning bilan birga ko‘chimning metafora turi shunday ramziy ifodaki, u orqali

[31] Dolinin Q.A. Stilistika frantsuzsqogo yazika. Leningrad.1978. str.139-142.)
[32] Kungurov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshqent, 1992. bet 100.)
[33]: Umirov I. O‘zbek tilida parafrazalar. - Toshqent. 1997. bet 54-55.)

so‘zning asl ma’nosi o‘zgartiriladi va butunlay boshqa bir ma’no qasb etishiga yordam beradi. Buning natijasida har kanday tilning boyishini quzatamiz

Metonimiya grekcha *metanimia* so‘zidan olingan bo‘lib, boshqacha nom berish degan ma’noni bildiradi. Bunda predmet yoki voqea, hodisa ongimizda bir-biri bilan aloqador tushunchalarni anglatishi jixatdan o‘zaro bog‘langan bo‘ladi. Masalan, *dasturxon* - materialdan tiqilgan, noz-ne’mat qo‘yiluvchi anjom, "*dasturxon*" - noz-ne’mat, oziq-ovqat (dasturxonga qapanr misolida). Noz - ne’mat bilan u qo‘yiladigan anjom o‘rtasida chambarchas (bog‘liqlik mavjud. Ular biri ikkinchisisiz ishlatilmaydi.

Shuning uchun ham ularning qaysi biri ixchamrok bo‘lsa, shu asos qilib olinadi. Haqiqatdan ham oldin dasturxon solinadi, so‘ngra ustiga noz-ne’mat solinadi. Shu tufayli bo‘lsa kerak noz ne’matga "*dasturxon*" nomi quchirilgan. Demak, o‘zaro bir-biriga bog‘liq predmetlardan biri ikkinchisining nomi bilan kayta nomlanyapti, ya’ni ikki predmetning bir-biriga bog‘liqlik asosida qayta nomlash shart bo‘ladi. Shu maqsad asosida nutqning ta’sirchanligi va badiiyligini oshiriladi. Bizningcha, metonimiya hodisasiga bo‘lgan munosabat barcha tilshunoslarda birday qo‘rinadi.

Sinekdoxa. Sinekdoxa tilshunoslikda xali to‘la ishlanmagan soxa bo‘lib, u haqidagi ayrim fikrlarni tilshunoslikka va leksikologiyaga oid ba’zi kitoblardagina uchratamiz. Sinekdoxa hodisasining to‘la yechimini topilmayotganining sababi shuki, u ko‘pincha metonimiyaning bir qismi deb ko‘rsatilib keladi. Lingvistikada ushbu fikrning tarafdorlari va uning muxoliflari mavjud. Sinekdoxa ma’no ko‘chishning bir turidir.

Sinekdoxa yo‘li bilan ma’no ko‘char ekan, yuzaga kelgan yangi ma’no avvalgi ma’no anglatgan narsaga nisbatan boshqa tushunchani anglatadi, sinekdoxa (yunoncha "*sinek doche*" - birga anglamoq, fib faxmlamoq) qism nomi bilan butunni, butunning nomi bilan esa qismni atash hodisasidir. Masalan, "*bosh*" yoki "*tyyoq*" so‘zlarining qoramol, qo‘y-echki ma’nosida, "*tirnoq*" so‘zining farzand ma’nosida qo‘llanilishi sinekdoxa hodisasiga kiradi.

Sinekdoxa ma’no taraqqiyotiga oid hodisadir. Sinekdoxada butunning nomi bilan atalgan bo‘lak, hamma vaqt o‘sha butunning mantiqiy bir qismi sifatida saqlanadi. Butun va uning bo‘lagi, qismi o‘rtasidagi munosabatga asosan ko‘chma ma’no yuzaga keladi.[34]

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, sinekdoxa bilan metonimiya o‘rtasida ko‘pgina yaqinliklar va o‘xshashliklar mavjud. Ammo ularni bir hodisa deb tushunish to‘g‘ri emas.

Metonimiyada ma’no ko‘chishi predmetlarning o‘zaro aloqadorligiga asoslansa, sinekdoxada esa, o‘zaro bog‘liqlikga asoslanadi. Matn ilmida aloqadorlik, yaxlit bir tushuncha bo‘lmay, balki u makondagi ikki narsaning zaruriy va shartli holatda yaqinlashuvidir.

Bog‘liqlik esa predmetlar o‘rtasidagi uzviy yaqinlikning doimiy yashovchanlikdir.

Metonimiyada birlamchi narsa (yoki predmet nomi bilan unga aloqador bo‘lgan predmetlar tushunilsa: masalan, *dasturxon* birlamchi uning ustiga qo‘yuluvchi noz-ne’matlar esa ikkilamchidir), sinekdoxa esa buning aksi. Masalan, *bola* yoki *farzand* birligi, ya’ni asos, uning tirnog‘i esa ikkilamchi kism (*tirnoqqa zor* - farzand ma’nosida).

Predmetlarning o‘zaro o‘xshashligi metaforaga xos. Sinekdoxadagi ko‘chim esa o‘xshashlikka asoslanmaydi.

Gap ma’no ko‘chishidagi o‘xshashlik, haqida ketganda, shuni aytish lozimki, Masalan *ko‘k* so‘zini izohlab ma’no torayishi natijasida sinekdoxa yuzaga kelganligini aytadi, ya’ni sifat turqumiga oid *ko‘k* so‘zini dastlab binafsha, yashil va xavorang atrofidagi hamma ranglarni ifodalar edi. Ammo keyin esa rang nomlarini bunday umumiy atash talabga javob bermay qoldi. Shundan keyin *ko‘k* deb ataluvchi nomlar ikkiga: *ko‘k* hamda, *yashil* hozirgi vaqtga kelib rang nomlari bundan ham maydarok tushunchalarga differentsiatsiyalashib ketdi va u xavo rangini ifodalaydigan bo‘lib koldi, shuningdek ko‘k so‘zining qadimgi ma’nosi

[34] Mirtojiev M. O‘zbek tili adabiyoti jurnali. 1967 yil, l-son, bet 34.

ham saqlangan bo‘lib, u yashil, gunafsha, xavorang atrofidagi ranglarni umumlashtirib ifodalovchi turg‘un birikmalar sifatida qo‘llanadi.

Demak, *ko‘k* so‘zi hisobida ikki ma’no: birinchi - bir necha rang uchun umumiy va ikkinchisi – uning ma’lum qismi bo‘lgan rangni ifodalovchi (sinekdoxada ma’no ko‘chishi aynan o‘xshashlikka asoslanmaydi. S. Hojiev) ma’nolarga egadir. Ko‘rinib turibdiki, *ko‘k turg‘un birikmalar* hisobidagi ma’no torayishi sinekdoxaning yuzaga kelishi uchun sabab bo‘lganligini taqozo qiladi. Bu xulosaga unchalik qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki *ko‘k* so‘zi bugungi kunda osmon so‘zining bir sinonimi bo‘lishi bilan birga u har xil ko‘katlarga nisbatan ham ishlatilib kelinmoqda. Bularning barchasida ma’no ko‘chishning metafora usulidagi rang o‘xshashligiga asoslangandir. Xullas, sinekdoxa butunni va uning mantiqiy ajralmas bo‘lagini ifodalovchi ko‘chimning faol turidir.

Sinekdoxa nomdoshlovchi bilan nomdoshlanuvchi mutlaqo bir narsa, shuningdek, ularning biri ikkinchisining tarkibiy qismi bo‘ladi". [35]

Vazifadoshlik - turg‘un birikmalar ma’nosi ko‘chishining bir turi bo‘lib, obrazlilik, tasviriylik, ifodaliylikka bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqadigan turg‘un birikmalar ma’nosining ko‘chish usuli. Vazifadoshlik, umumiy tilshunoslikda o‘z yechimini topgan masala emas, hatto uning ikki nom bilan nomlanishi bunga asos bo‘la oladi.[36]

